

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI



**«UMUMIY PSIXOLOGIYA» FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARNI O`TKAZISH
BO`YICHA**

USLUBIY KO`RSATMA

Tuzuvchilar:

**Abdurasulov F.P.
Payziqulova N.X.**

Jizzax-2010

“MA'QULLANGAN”
“Qurilish”
fakulteti ilmiy Kengashida ma'qullangan
_____dots.Hamidov J.
(“___”- sonli bayonnoma)

“TAVSIYA ETILGAN”
“Kasb ta'limi va Pedagogika” kafedrasining 2009 yil 10 sentyabrdagi majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan
(kafedra majlisining 3- sonli bayonnomasi)

Tuzuvchilar:
© Abdurasulov F.P. Payziqulova N.X. “Umumiy psixologiya” fanidan amaliy
mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatma- Jizzax, JizPI. 2010 yil, 44-bet

SO`Z BOSHI

1.1. Fan mazmuniga qo`yiladigan malakaviy talablar

Bakalavr «Umumiy psixologiya» fani bo`yicha:

Quyidagi ilmiy va amaliy tasavvurlarga ega bo`lmog`i lozim:

- Psixologiya fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o`rni va ahamiyati, psixologik bilimlarni amaliyotda tadbiq etish sohalari va yo`nalishlarini bilish;
- psixologiya zamonaviy va ishonchli diagnostik metodlari va ularni konkret ishlab chiqarish sharoitida qo`llay olish; inson e`tiqodiga ta`sir ko`rsatish metodlaridan xabardor bo`lish;
- yangi ishlab chiqarish sharoitlarida ijtimoiy hodisalarni bashorat qilish, jamiyatni boshqarishning asosiy tamoyillari, bunda konkret shaxslarning o`rni va rolini anglash;
- jamoa mehnatini tashkil etish va boshqarishdagi psixologik qonuniyatlar, ijtimoiy muloqot va muomalaning sirlari; mehnatga to`g`ri motivatsiya munosabatini shakllantirish omillari to`g`risidagi tasavvurlarga ega bo`lish;
- konkret shaxs ijodiy tafakkurini rivojlantirish va samarali mehnatni tashkil etish omillari; mustaqil va ijodiy tafakkurni tarbiyalash masalalari;
- shaxsning individual, jinsiy va yoshga bog`liq xususiyatlari, yetuklik davrida shaxs taraqqiyotining psixologik qonuniyatlari; e`tiqod va sog`lom dunyoqarashni shakllantirish omillari, har bir ijtimoiy vaziyatda fuqarolik ongi va mas`uliyatini shakllantirish vositalarini aniqlay olish;
- guruhlar sharoitida shaxsni tarbiyalash va o`qitishning pedagogik, psixologik texnologiyalari, sotsial-psixologik trening va faol o`qitish metodlarini amaliyotda qo`llash.

Quyidagi malakalarga ega bo`lmog`i kerak:

- o`zgalarga ta`sir ko`rsatish va o`z-o`zini boshqarish malakalari;
- o`z iqtidori va qobiliyatlarini o`stirish texnologiyalarni o`zlashtirish;
- autotrening va psixologik treningning samarali va qulay shakllarini ishlata bilish va o`zgalarga o`rgatish;
- mehnat jamoalaridagi ijtimoiy-psixologik iqlimni o`rganish va uni muvofiqlashtirish malakalari;
- o`zining ijodiy faoliyatini boshqarish va mantiqiy fikrlash orqali ijtimoiy-psixologik jarayonlarni bashorat qilish;
- talabalar va tinglovchilar guruhlarida eng ilg`or pedagogik-psixologik texnologiyalarni joriy etish va ularning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga etkazish.

Bakalavr — talabalarda quyidagi ko`nikmalar bo`lishi kerak:

- o`z ustida mustaqil va ijodiy ishlash ko`nikmalari;
- o`zgalar mehnati va ijodiy faoliyatini xolis va ob`ektiv baholash;
- ijtimoiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida taklif-talablar tizimini ishlab chiqarish va ularni eksperimental tarzda sinab, tahlil qilish;
- sotsiologik anketalar tuzib, jamoatchilik fikri monitoringini ishlab chiqish;
- ziddiyatli sharoitlarda o`zini tuta olish va o`zgalar ruhiyatini tushunish ko`nikmalarini amaliy faoliyatda qo`llay bilish.

1.2. Predmetni o`qitishning maqsadi va vazifalari

Kasb ta`limi yo`nalishida ta`lim olayotgan bakalavrlarga o`qitilayotgan "Umumiy psixologiya" kursining asosiy maqsadi — bo`lg`usi mutaxassislariga o`zlari tanlagan ixtisoslik bo`yicha malakalarni yanada mustahkamlash, milliy istiqloq g`oyasi va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirilish davrida yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishning psixologik tamoyillari, shart-sharoitlari to`g`risida bilimlar berish, shaxs barkamolligiga aloqador tarbiya vositalarini o`z faoliyatlarida qo`llay olishga o`rgatishdan iboratdir. Tadbiqiy yo`nalish sifatida bu fan bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarda sog`lom dunyoqarash, mustaqil fikrlash hamda

milliy mafkura ruhidagi e'tiqodni shakllantirish, istiqbolda har bir mutaxassisning jamiyatdagi ziyolilarning eng ilg'or vakili sifatida Vatan ozodligi, obodligi, taraqqiyoti, yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilishga qodir bo'lgan vatanparvarlarni tarbiyalashga o'z xissasini qo'shadi.

Kursning asosiy vazifalariga bakalavrlarni ijtimoiy faoliyatining barcha yo'nalishlarida kishilar mehnatini tashkil etish, boshqarishning psixologik omillari, mexanizmlari va shart-sharoitlari bilan tanishtirish, ijtimoiy faoliyat motivlarini mukammal o'zlashtirish, o'zlaridagi qobiliyat va iqtidorni o'stirish yo'llari hamda mustaqil, ijodiy tafakkurini rivojlantirish omillariga o'rgatish, jamoada faoliyat ko'rsatganda o'zgalarga psixologik ta'sir ko'rsatish sirlaridan boxabar qilish, ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiati va mohiyatini tushunishga ko'maklashishdan iboratdir. "Umumiy psixologiya" kursi bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning maqsadi -talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, fikrlash madaniyatiga oid madaniy ko'nikmalarni rivojlantirish va muomala sirlariga o'rgatishdan iborat bo'lib, oqibatda bu bilim va ko'nikmalar orqali talaba psixologiya fanining kelajak kasbiy faoliyatidagi o'rni va rolini aniqlash, psixologik bilimlarni amaliyotga tadbiq etish soha va yo'nalishlarini aniq tasavvur qilishga ko'maklashadi.

1.3. Umumiy psixologiya boshqa fanlar bilan aloqasi va bogliqligi

"Umumiy psixologiya" kursi bakalavrlar tayyorlash o'quv rejasidagi "Ijtimoiy gumanitar fanlar" blokidagi barcha predmetlar bilan bog'liq va ularni ma'lum ma'noda to'ldiradi. Bundan tashqari, "Umumiy psixologiya" kursi mutaxassislik malakasini shakllantiruvchi maxsus kurslar hamda psixologiya fanining u yoki bu ixtisoslikka yo'naltiruvchi sohalarini ("Iqtisodiy psixologiya", "Yuridik psixologiya", "Mehnat psixologiyasi", "Tibbiy psixologiya", "Muhandislik psixologiyasi") kiritilgan oliygoxlarda maxsus bilimlar uchun asos bo'ladi va ularni to'ldirishga yordam beradi.

1.4. Kursni o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"Umumiy psixologiya" kursini bakalavriat o'quv rejasiga ko'ra 1-kursda o'qitiladi. Bu kursni o'zlashtirish samaradorligi Prezident I. A. Karimovning nazariy ishlaridan, xususan, Oliy Majlis 9-sessiyasida ta'kidlangan erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurishda faol ishtirok etuvchi yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, yuqori malakaviy sifatlar sohibi bo'lgan kadrlar tayyorlash g'oyasidan, milliy istiqbol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillaridan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning vazifalaridan bevosita kelib chiqadi. Umumiy psixologiya kursini chuqur va mukammal egallash uchun bakalavr-talabalarga jahon psixologlari, jumladan, mustaqil hamdo'stlik davlatlari psixolog-olimlari, shu bilan birgalikda, o'zbekistonlik olimlarning asarlarini mustaqil o'rganish va ular yuzasidan mustaqil ilmiy ishlar — referat, nazorat ishlari yozish tavsiya etiladi. Bakalavrlar bilimlarini nazorat qilish va baholash yozma ishlar, test so'rovlari, muammoli testlarni yechish va og'zaki so'rovlar asosida amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

1. Talabalarlarning leksiyalarda egallay olgan psixologik bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish.
2. Talabalarda psixologiyaga doir adabiyotlar mustaqil ishlay olish malakalarini shakllantirish.
3. Talabalarni psixologiyaga doir amaliy tadqiqotchilik malakalari bilan qurollantirish.
4. Talabalarni psixologiyadan egallagan nazariy va amaliy malakalarini pedagogik jarayonga tadbiq qila olishga o'rgatish.

5. Psixologik tadqiqot natijalariga tayangan holda, bo'lg'usi pedagoglarda tarbiyalanuvchilarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatda bo'lish malakalarini shakllantirish.
6. Talabalarning psixologiya fani va pedagoglik mutaxassisligiga qiziqtirish.
7. Talabalarga psixologiyadan egallagan bilimlarini asosli, ishonchli va erkin bayon qilib bera olish malakasini tarbiyalash.

Har bir amaliy mashg'ulotlarining rejasini tuzishda talabalarga ma'ruzaning metodologik va nazariya tomonlarini mumkin qadar to'laroq ochish, ilmiy adabiyot bilan mustaqil ishlay olishga o'rganish, psixologik eksperiment metodikasi bilan tanishish, maktab o'quvchilari shaxsining tarkib topishi va rivojlanishini kuzata bilish psixologik bilimlarni sintez va analiz qilish hamda to'g'ri pedagogik hulosalar chiqara bilishning o'rganish imkoni yaratilda.

Amaliy mashg'ulotlar mazmuniga bevosita bog'liq bo'gan adabiyotlar ko'rsatiladi. Amaliy mashg'ulotlarini rejasini va adabiyotlarini oldindan tavsiya etiladi. Chunki talabalar adabiyotlarni to'la o'rganib, amaliyda so'zga chiqish uchun tayyorgarlik ko'rishlari lozim.

Pedagogika oliygohida talabalar psixologik fikr yuritishga, yangi faqat psixik faoliyat qonunlarinigina emas, balki bu qonunlarni bilishga asoslangan holda maktab o'quvchisi shaxsining u yoki bu tarzda namoyon bo'lishini to'g'ri tushuntirib berishni bilishi kerak. Har bir mavzu bo'yicha psixologik masalalar tanlangan, o'rganilgan adabiyotlar bo'yicha referat mavzulari ham tavsiya etiladi. Talabalar referat yoki dokladlar ustida ishlar ekanlar tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari psixologiya fanining ayrim muammolarini yoritib beruvchi qo'shimcha manbaalardan ham foydalanishlari mumkin. Talabalar referat yoki doklad yozishga kirishdan oldin quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- mavzu yuzasidan zaruriy adabiyotlarni to'plash va ularni chuqur o'rganish;
- yaxshilab O'ylash va ishning mufassal rejasini tuzish;
- avtorlar tomonidan ilgari surilgan u yoki bu qoidalar manbalarining to'g'riligini va ishonchliligini o'ylab ko'rish;
- adabiyotda ko'rib chiqilgan asoslarni taqqoslab ulardan umumiy va xususiylarini ajratish, o'rganilgan materialni referat yoki dokladning belgilangan rejasiga mos ravishda umulashtirish;
- ishga tegishli ko'rsatmali qurolni tayyorlash, shaxsiy kuzatish, tajriba eksperimentlardan mohirlik bilan foydalanish;
- referat yoki doklad tuzish talabalar mustaqil ishining muhim shaklidir. Bu ish ijodiy tafakkur taraqqiyotiga yordam beradi, o'quvchining ijtimoiy xatti-harakatlari va xulq-atvoriga baho berishda to'g'ri yondashishga yordam beradi.

Birinci mashg'ulot

Mavzu. Psixologiya fanining predmeti. (2 soat)

Reja

1. Fan sifatida psixologiyaning ta'rifi. Odam psixik faoliyatining tuzilishi.
2. Psixika va uning turlicha nazariy yo'nalishlarda talqin qilinishi.
3. Psixologiyaning vazifalari va tarmoqlari. Umumiy psixologiya haqida tushuncha.
4. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi va fanlar tizimida tutgan o'rni.
5. Nerv sistemasining tuzilishi va psixika. Psixikaning reflektorlik xarakteri.
6. Psixik taraqqiyotning oliy darajasi sifatida ong va uning tuzilishi strukturasi haqida tushuncha.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinci savolda: «Psixologiya» terminining lug'aviy ma'nosini ochib berish; psixologiyaga asos solinishi va uning fan sifatida maydonga kelishi haqida qisqacha ma'lumot berish; psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlar haqida tushuncha berish; psixologiya faniga ta'rif berish zarur.

Ikkinchi savolda: psixika haqidagi ta'limotlarni tushuntirib berish; psixika haqida turlicha yo'nalishdagi idealistik ta'limotlar: Platon va boshqalarning «ideyalar» haqidagi nazariyasi, psixo-fizik parallelizm, psixo-fizik o'zaro ta'sir oqimi namoyandalarining fikri va ularning tanqidi haqida tushuncha beriladi.

Uchinchi savolda: psixologiyaning nazariy va amaliy vazifalari; psixologiyaning asosiy sohalar: umumiy psixologiya, qiyosiy psixologiya; har turli faoliyat sohalaridagi kishilar psixikasini o'rganuvchi tarmoqlari haqida tushuncha beriladi va umumiy psixologiya batafsil ta'riflanadi.

To'rtinchi savolda: psixologiyaning falsafa, tabiatshunoslik, pedagogika, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntirish, psixologiyaning texnika taraqqiyoti bilan aloqasi haqida ma'lumot berish; psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rnini tushuntirish ko'zda tutiladi.

Beshinchi savolda: inson nerv sistemasining umumiy tuzilishi, psixik faoliyatning reflektorlik tabiati; shartli reflekslar va ularning hosil qilinishi; bosh miya kata yarim sharlar po'slog'ining analitik-sintetik faoliyati, oliy nerv faoliyatining asosiy jarayonlari: qo'zg'alish, tormozlanish, irradatsiya va kontsentratsiya, ularning kelib chiqish qonuniyatlari haqida tushuncha, shartli reflekslarning tormozlanishi; katta yarim sharlar qobig'ining signal funktsiyalari haqida tushuncha berish.

Oltinchi savolda: onga ta'rif berish; ong tuzilishini tushuntirish; onglilik va ongsizlik haqida tushuncha berish kerak.

Ikkinchi mashg'ulot

Mavzu. Psixologiya fanining soxalari va uning tadqiqot metodlari. (2 soat)

Reja

1. Psixologiyaning asosiy metodologik printsiplari haqida tushuncha.
2. Ilmiy psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari.
3. Psixologik tadqiqotning konkret (xususiy) metodikasi va psixologik qonuniyatlarni aniqlashning asosiy bosqichlari.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: psixologiyaning materialistik monizm, determinizm, tarixiy printsiplari, ong va faoliyatning birligi; shaxsiy yondashish printsiplari haqida tushuncha beriladi.

Ikkinchi savolda: a) psixologiyaning kuzatish metod iva uning turlari, eksperiment metodi va uning turlari va uning turlari, psixologik testlar haqida tushuncha berish kerak;

b) suhbat metodi: faoliyati jarayonida va uning mahsulini tahlil qilish metodi; anketa metodi haqida tushuncha berish kerak;

c) sotsiometrik metodva uning qo'llanilishi haqida ham batafsil to'xtalib o'tiladi.

Uchinchi savolda: tadqiqotlar jarayonini ba'zi bosqichlarga bo'lib tushuntirib beriladi. Masalaning qo'yilishi; tekshirish metodikasini tanlash; aniq ma'lumotlarni to'plash; ularni ishlab chiqish; qonuniyatning ifodalanishi; uning amalda qo'llanilishi haqida tushuncha beriladi.

Uchinchi mashg'ulot

Mavzu. Ongning psixologik tavsifi. (2 soat)

R e j a.

1. Hayvonlar psixikasi taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
2. Hayvonlar xatti-harakatlarining formulalari.
3. Inson ongining tarixiy taraqqiyoti.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: taraqqiyotni dialektik materialistik tarzda tushunish; nerv sistemasi va aks ettirish faoliyatining rivojlanishi; jonli va jonsiz tabiatda aks ettirish; ta'sirlanuvchanlik

haqidagi tushuncha tirik materiyaning hususiyati ekanligi, psixik aks ettirish formasining paydo bo'lishi, psixik taraqqiyotda sensor va pertseptiv bosqichlar haqida tushuncha beriladi.

Ikkinchi savolda: hayvonlar harakatlarining asosiy formalari; xatti-harakat formalarining taraqqiyoti; hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, munosabatlari va «tili»ga xarakteristika beriladi.

Uchinchi savolda: inson ongining paydo bo'lish shart-sharoitlari, sabablari; inson ongining hayvon psixikasidan farqi; kishilarning mehnat faoliyati va uning inson taraqqiyotidagi roli; ong va til orasidagi bog'lanishlar; ong va o'z-o'zini anglashning ijtimoiy-tarixiy tabiati tushintiriladi.

To'rtinchi mashg'ulot

Mavzu. Faoliyatning psixologik talqini.(2soat)

R e j a

1. Faoliyat haqida umumiy tushincha.
2. Faoliyat turlarining psixologik xarakteristikasi.
3. Malakalarning psixologik xarakteristikasi.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: odamning xatti-harakati va uning ehtiyojlarini qondirish usullari; faoliyatning ta'rifi, maqsadi va motivi haqida tushincha berish; faoliyat strukturasi; ish va harakatlar; harakatlarni boshqarish va uni nazorat qilish; faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi, ta'siri haqida ma'lumot berish kerak.

Ikkinchi savolda: faoliyat shaxsning boshqa kishilar bilan ma'lum munosabatlar sistemasida amalga oshirilishi; faoliyatning asosiy turlaridan biri sifatida o'yinga psixologik xarakteristika beriladi; o'qish faoliyatining psixologik xususiyatlari, mehnat faoliyati va uning psixologik xususiyatlari tushuntiriladi.

Uchinchi savolda: harakatlarning avtomatlashuvi va malakalarning yuzaga kelishi haqida tushuncha berish; malakaga ta'rif berish; malakaning tuzilishi; harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi; ishni bajarihdan sensor, ya'ni hissiy nazorat qilish usullarini o'zgarishi; ish-harakatni markaziy boshqarish usullarining o'zgarishi haqida tushuncha beriladi. Faoliyatni o'zlashtirish va mashqlar, mashq egri chizig'lari haqida, ko'nikma haqida, ko'nikmalarning o'zaro ta'siri, odatlar haqida tushuncha berish zarur.

Beshinchi mashg'ulot

Mavzu. Muloqot. (2 soat)

R e j a

1. Muloqot va uning turlari haqida umumiy tushuncha.
2. Axborot almashish va muloqot.
3. Muloqot - shaxslararo ta'sir ko'rsatishdir.
4. Muloqot - kishilarning bir-birlarini tushunib borishi sifatida.
5. Axborot uzatish va ommaviy axborot jarayonlari. Axborot vositalari, ularning mohiyati va samaradorligi.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: muloqotga ta'rif beriladi. Muloqotning rejali ekanligi, muloqot va faoliyatning birligi; muloqot turlari haqida tushuncha beriladi.

Ikkinchi savolda: muloqot axborot almashish jarayoni, til esa asosiy muloqot vositasi sifatida tushuntiriladi. Nutqning til yordamida amalga oshiriladigan muloqot vositasi ekanligi ta'riflanadi, nutq turlari haqida tushuncha beriladi, nutq mexanizmi tushuntiriladi.

Uchinchi savolda: muloqot shaxslarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi sifatida ta'riflanadi. Ijtimoiy nazorat va ijtimoiy me'yorlar, muloqot jarayonidagi rollar; pedagogik jarayonlardagi muloqotlar; shaxslararo nizolar; kelishmovchiliklar; do'stona muloqot haqida tushuncha beriladi.

To'rtinchi savolda: muloqot odamlarning bir-birlarini idrok qilish vositasi sifatida sharhlanadi. Axborotda teskari aloqa; pedagoglarning bolalarni boshqalar bilan muloqotga kirishishga o'rgatish bo'yicha Mashq qildirishlari haqida tushuncha berilishi kerak.

Beshinchi savolda: axborot uzatish - shaxsning yiroqdagi kishilar bilan bevosita muloqotda bo'lish yo'li ekanligi aytiladi. Xat yozishuv, telegramma, telefonogramma yozuvlari: telefon va ratsiya suhbatlari orqali muloqotning o'ziga xos xususiyatlari hamda mavjud imkoniyatlari aytib o'tiladi. Ommaviy axborot vositalari: gazeta, jurnal, radio, televizor orqali amalga oshiriladigan muloqotlarning xususiyatlari tushuntirilib, ularning mohiyati, qulay va samaradorlik jihatlari aytib o'tilishi kerak.

Muomalaning kommunikativ, interaktiv, pertseptiv jihatlari aytib o'tiladi. Pedagogik muomala. Muomala va til. Nutq. Nutq mexanizmlari. Verbal va noverbal kommunikatsiya vositalari. Pedagogik muomalaning psixologik jihatlari. Muomala jarayonida yuzaga keladigan nizolar. Muomala jarayonida kishilarning bir-birini tushunishi va idrok qilishi mexanizmlari ochib beriladi.

E.Bern har bir muomalada ishtirok qilayotgan kishining hatti-harakatini, pozitsiyasini yuqoridagilardan kelib chiqib baholashni taklif qiladi.

- Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish
- Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir)
- Pertseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish) ohib beriladi.

E.Bern ajratgan rollarni quyida jadval ko'rinishida aks ettiramiz:

	Ota-ona	Katta kishi	Bola
Ishlatadigan ibora va so'zlar	Hamma biladiki..... Sen hech qachon..... Sen doimo..... Hayronman.....	Qanday? Nima? Qaerda? Nima uchun? Ehtimol..... Bo'lishi mumkin.....	Men sizdan xafa....! Juda ajoyib, zo'r! Qoyil! Dahshat! Rasvo!
Intonatsiyasi	Ayblovchi, go'yoki kechi-ruvchi, tanqidiy, ogoh lantiruvchi	Reallik bilan bog'liq	Juda hissiy
Holati	Yuqoridan keluvchi, Doimo u haq, u doimo o'zini to'g'ri tutadigandek	Diqqat bilan eshi-tishga, so'rab-surishti-rishga tayyordek	Biroz beso'naqay, o'yinqaroqroq, ezilgan, azobga qolgan
Mimikasi	Qoshlari chimirilgan, qovoqlari uyulgan, norozilik, qayg'urish	Diqqat-e'tiborlilik, teran fikrlilik	Hayratlanish, qoyil qolish, ezilish
Gavda holati	Qo'llar belda, ko'rsatgich barmoq ochiq, qo'llar ko'krakda qovushgan	Hamsuhbatga engashgan, unga diqqat bilan qaragan	Spontan harakatchanlik (mushtumini tugadi, barmoqlarini ezadi, tug'masini «o'ynaydi»

Rahbarlik qilishning 3 xil uslubi mavjud:

- Avtoritar
 - Demokratik
 - Liberal uslublardir. Bular to'risida to'liq ma'lumot beriladi.
- Pantomimika, Mimika to'g'risida ma'lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. Muomala va muloqat haqida tushuncha.

2. Til haqida tushuncha.
3. Nutq va uning turlari.
4. Muomala jarayonining kommunikativ, pertseptiv va interaktiv tomonlari.
5. Pedagogik muomola.
6. Verbal va noverbal kommunikatsiya.
7. Muomala jarayonida yuzaga keladigan nizolar.
8. Muomala jarayonida kishilarning bir-birini idrok qilishi.

Adabiyotlar:

1. G`oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
2. G`oziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
4. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. - M., 1999
5. Dyui D. Psixologiya i pedagogika mishleniya. - M., 1998
6. Emelyanov Yu. N. Aktivnoe sosialno-psixologicheskoe obuchenie. - L., 1985
7. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
8. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
9. Karimova V. M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". - T., 1994
10. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - T., 2000
11. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
12. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma`ruzalar matni - T., 2000
13. Luriya A. R. Yazik i mishlenie - M., 1979
14. Nemov R. S. Psixologiya M. 1990
15. Prikladnaya sosialnaya psixologiya. Uchebnoe posobie. - M., 1998
16. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
17. Rubinshteyn S. L. Osnovi obshey psixologii. - M., 1998
18. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy ta`hriiri ostida. T. 1992.

Oltinchi mashg`ulot.

Mavzu. Shaxs haqida tushuncha. (2 soat)

Reja:

1. Indivud, shaxs, individuallik va ularning o`zaro bog`lanishlari haqida tushuncha.
2. Shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari haqida tushuncha. Qiziqish va e`tiqodlar.
3. Shaxsning tarkib topishi va harakatlantiruvchi kuchlari.
4. Guruh va javoaning ijtimoiy-psixologik xarakateristikasi.
5. Jamoa va shaxs.

Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savolda: individ haqida tushuncha, shaxs va uning strukturasi, shaxs individuallik xususiyatlar, ular o`rtasida bog`lanishlar tushuntiriladi.

Ikkinchi savolda: shaxs faolligi deb nimaga aytiladi; shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari haqida fikr bildiriladi; inson faolligi bilan hayvon faolligini bilan hayvon faolligining farqi ochib beriladi. Mehnat ehtiyojlariga alohida to`xtalish; ob'ekt mazmuni va ehtiyojlari, xulq-atvor motivlari; qiziqishlar, e`tiqod, tilaklar, anglashilmagan mayllar, shaxs maqsadlari va talablarining darajasi haqida qisqacha fikr aytilishi kerak.

Uchinchi savolda: odam shaxsini shakllantiri qonuniyatlarining ob'ektiv xarakteri; odamning rivojlanishida va shaxsning kamolotida biologik va ijtimoiy komponentlarning roli to`g`risadi; odamning psixik rivojlanishi va shaxs kamolotidagi harakatlantiruvchi kuchlar; yosh avlodning har tomonlama rivojlanishining asosiy omillari va shart-sharoitlari har tomonlama madaniyat kishilarga xos bo`lgan shaxsiy sifatlar; shaxs faolligining freydistik va neofreydistik; bixevioristik kontseptsiyalarining tanqidi haqida so`z yuritiladi.

To'rtinchi savolda: guruh va uning turlari, tuzilishi, guruhning jamoa sifatida rivojlanishi haqida gapiriladi.

Beshinchi savolda: shaxs bilan jamoa o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi; shaxsga nisbatan jamoaning vazifalari; jamoa va unga rahbarlik masalasi; liderlik masalasi; rahbarlik va liderlik shaxs bilan jamoa o'zaro munosabatlarining zohir bo'lishi haqida so'z yuritiladi.

Yettinchi mashg'ulot.

Mavzu. Shaxsning tuzilishi. (2 soat)

Reja:

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
2. Shaxsning tuzilishi.
3. Shaxsning rivojlantiruvchi, xarakatlantiruvchi kuchlar.
4. Komil inson tushunchasi.
5. O'quvchi shaxsini o'rganish metodlari.

7-mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savol: individ haqida tushuncha, shaxs va uning individual xususiyatlari, ular o'rtasidagi bo'lanishlar, individuallik, shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyojlar haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
2. Individ, individuallik tushunchalarini izohlang.
3. Shaxs tushunchasiga oid nazariyalar haqida ma'lumot bering.
4. Shaxs tushunchalariga oid ta'riflarni keltiring (K.K.Platonov, L.S.Rubenshteyn, A.V.Petrovskiy, A.N.Leont'ev)


Ikkinchi savol: Shaxs va uning tuzilishi haqida, shaxs faolligining yo'nalishi, shaxsning shakllanishida o'z-o'ziga baho berish haqida ma'lumot beriladi.

A.V.Petrovskiy shaxs 3 ta tarkibiy strukturasini ajratdi:

1. Individning ichki tuzilmasi (Intraindividlik) – u insonni temperamenti, xarakteri, qobiliyatini tuzilishida o'z aksini topib, u zarur, lekin shaxs psixologiyasini bilish uchun yetarli emas.

2. Shaxsni real mavjud bo'lishi uchun uni predmetlar bilan faoliyat jarayondagi munosabatini o'z ichiga olib, insonni ma'lum xarakteristikalarini fazoda individni organik tanasidan tashqarida izlash lozim bo'lib, u shaxsning interindivid tuzilmasini tashkil qiladi.

3. Individ usti (metaindivid) tuzilma markazida insonni faoliyat jarayonida insonlardan muloqat jarayonida boshqalarga ta'sir va boshqalardan olinadigan ta'siri sifatida namoyon bo'lib, u persona ravishda namoyon bo'ladi. A.V.Petrovskiy o'z strukturasiga 3 tuzilmani kiritgan. Bu shaxs individualligi, uni shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lishi va boshqa insonlarga ta'sir eta olishi bo'lib, shaxs doimo shu uchlikda namoyon bo'lishi va individlararo, ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi lozim.



Individual tipologik xususiyatlar

S.L.Rubeshiteyn bo'yicha shaxs strukturasi quyidagi ko'rinishga izoh bering.

Shaxs strukturasi bo'yicha yana qaysi psixologlarning shaxs tuzilmasini keltira olasiz?

Uchinchi savol: Inson shaxsini shakllantirish qonuniyatlarini ob'ektiv xarakteri, odamning rivojlanishida va shaxsning kamolotida biologik va ijtimoiy omillarning roli haqida, odamning psixik rivojlanishi va shaxs kamolotidagi harakatlantiruvchi kuchlar haqida ma'lumot beriladi.

O'z-o'ziga baho berish – psixologiyada o'z shaxsiy psixologik xususiyatlari va fazilatlar, yutuq va kamchiliklari, shuningdek muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini baholash tushuniladi. O'z-o'ziga baho berish adekvat, yuqori va past bo'lishi mumkin. Buni shartli ravishda: $S = n$ (adekvat) $S > n$ (yuqori) $S < n$ (past). Bunda – S - o'z-o'ziga baho berish, n – imkoniyat. Shaxsda alohida e'tiborga frustratsiya xususiyati ham loyiq.

Frustratsiya – shaxsni o'z muvaffaqiyatligini chuqur emotsional his qilishi bo'lib, u ilojsizlik, umidsizlik bilan namoyon bo'ladi.

Frustratsiya – shaxsni agressiv yoki anatik xulq - atvori sifatida kechadi. Shu bilan birga shaxsda tolerantlik kabi xususiyat ham uchraydi. Bu shaxsni u yoki bu faktorga befarqligi yoki munosabatning mavjud emasligidir. U uch turdi namoyon bo'ladi – muvaffaqiyatsizlik, fikrlovchi munosabat, ichki bexalovatlilik va osoyishtalik.

Nazorat savollari:

1. Shaxsni rivojlantiruvchi va harakatlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat.
2. Dunyoqarash nima?
3. E'tiqod, qiziqish, maqsad, g'oya, ishonch tushunchalarini izohlang.
4. Shaxsni tarkib topishida ta'lim va tarbiyaning roli haqida gapiring.

To'rtinchi savol: Komillik haqida yosh avlodni har tomonlama rivojlanishining asosiy omillari va shart-sharoitlari, har tomonlama madaniyatli kishilarga xos bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda xususiyatlar haqida tushuncha beriladi.

Barkamol insonni baholash (E.G'oziev)

I. Shaxs haqida umumiy tushuncha

F.I.Sh. _____

Jinsi _____ yoshi _____

Ish va o'qish joyi _____

II. Shaxsning yo'nalganligi.

№	Fazilatlar nomi	Kuchsiz	O'rtacha	Kuchli	O'rta kuchli
1	2	3	4	5	6
1.	Iymon e'tiqodlilik	1	2	3	4
2.	Sobit qadamlilik	1	2	3	4
3.	Jamiyatlilik	1	2	3	4
4.	Beg'arazlik	1	2	3	4
5.	Haqgo'ylik	1	2	3	4
6.	Kamtarlik	1	2	3	4
7.	Adolatlilik	1	2	3	4
8.	Insonparvarlik	1	2	3	4
9.	Fidoiylilik	1	2	3	4
10.	Vatanparvarlik	1	2	3	5

III. Shaxsning umumiy xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	Muloqotmandlik	1	2	3	4
2.	Tashabbuskorlik	1	2	3	4
3.	Harakatchanlik	1	2	3	4
4.	Zukkolik	1	2	3	4
5.	Sinchkovlik	1	2	3	4
6.	Mehantsevarlik	1	2	3	4
7.	Qat'iyatlilik	1	2	3	4
8.	Qulaylilikka intiluvchanlik	1	2	3	4
9.	Mustaqillik	1	2	3	4
10.	O'zini boshqaruvchanlik	1	2	3	4

IV. Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	O'zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg'ashga qobillik.	1	2	3	4
2.	O'zgalar ichki kechinmalari va hislarini O'zinikiday qabul qilishga moyillik.	1	2	3	4
3.	O'zga kechinmalar xatti-harakatlari va xulq-atvorini tahlil etishga qobiliyatlilik.	1	2	3	4
4.	O'zini xayolan o'zganing o'rniga qo'ya bilish o'quvchanligi	1	2	3	4
5.	O'zgalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga oqqilona munosabat bildirishga layoqatlilik.	1	2	3	4
6.	Shaxslararo munosabatlarni payqay oluvchanlik	1	2	3	4
7.	Ilg'or tajribalarni oson o'qib olishga zehnlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat qatnashchilari bilan umumiy til topishga zukkolik	1	2	3	4
9.	Shaxslararo muomalada shaxsiy pozitsiyaga egalik	1	2	3	4
10.	Xulq, faoliyat va muomalada odoblilik	1	2	3	4

V. Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik

1	2	3	4	5	6
1.	Boshqalar e'tiqodli kishilarga o'zga xos omillarga va mantiqiy dalillashga ta'sir o'tkazishga topqirlik	1	2	3	4
2.	O'zining hissiyot va emotsiyasi bilan o'zgalarga ta'sir etishga o'quvchanlik	1	2	3	4
3.	Ishda va o'qishda muvaffaqiyatga erishuvda o'ziga ishonch uy'otuvchanlik	1	2	3	4
4.	O'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchanlik	1	2	3	4
5.	Voqelikning muhim va nomuhim, ijobiy hamda salbiy tomonlariga xolisona baho beruvchanlik	1	2	3	4
6.	Tanqidiy fikrlarni mantiqan baholashga bo'lgan qobillik	1	2	3	4
7.	Tanqidiy fikrlarga nisbatan beg'arazlik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitni to'g'ri chamalashda mantiqiy mukammallik	1	2	3	4
9.	Fikr almashishda nutqiy qobiliyatlik	1	2	3	4
10.	Milliy g'oya va milliy mafkurasiga sadoqatlilik	1	2	3	4

VI. Tashkilotchilikka qobiliyatlilik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisbatan ehtiyojni sezishlik	1	2	3	4
2.	Tashkilotchilik faoliyatini suiste'mol qilmaslik.	1	2	3	4

3.	Faoliyat mohiyatiga mustaqil kira bilishlik	1	2	3	4
4.	O'z zimmasiga javobgarlik va mas'uliyat tuyg'usini olishlik	1	2	3	4
5.	Tashkilotchilik faoliyatini zavq-shavq bilan ado etishlik	1	2	3	4
6.	Tashkilotchilik jarayonida o'zidan qoniqish hissini in'ikos qilishlik	1	2	3	4
7.	Tashkilotchilikni uddalashga bo'lgan layoqatlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitga nisbatan tashkilotchilikda muvaffaqiyatlilik yoki barqarorlik	1	2	3	4
9.	Tashkilotchilikda tezkorlik va samaradorlik sifatlarida uyg'unlik	1	2	3	4
10.	Tashkilotchilikda ijodiylik va aql zakovatlilik	1	2	3	4

VII. Tashkilotchilikka qobiliyatlilik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisbatan qobiliyatlilik: A) ko'pgina faoliyat turlariga B) faqat yagona faoliyat turiga	1	2	3	4
2.	Faoliyat ishtirokchilarining yosh davrlariga bo'yicha tashkilotchilik qobiliyatida tafovutlilik A) O'zidan katta yoshdagilarga B) O'zining tengqurlariga	1	2	3	4
3.	Shaxslararo munosabatga mutanosiblik A) distantiya (bevosita shakliga) B) kontakt (bevosita) V) har ikkalasi um	1	2	3	4
4.	Faoliyatni boshqarish uslubi bo'yicha A) harakatli davomiy B) faol jonli V) sustkash, xotirjam	1	2	3	4
5.	Boshqaruv psixologiyasiga ko'ra A) demokrativ B) liberal V) avtokrativ	1	2	3	4

Ushbu jadval asosida «Kamil inson» shaxsining shaxsiy sifatleri va xususiyatlarini baholang.

Beshhinch savol: O'quvchi shaxsini o'rganishga oid metodikalar haqida ma'lumot berish. (Ayzenk testi, K.N.Tomsning «Shaxs so'rovnomasi», Kettel testi, E.G'oziev «Shaxsni o'z-o'ziga baho berish» shkalasi).

Mashqlar:

1. O'zingizga-o'zingiz savol-javoblar tarzida xat yozishga harakat qiling. Yozganda ko'p o'ylanmay, kallaga kelgan savolga mos tarzda javob yozing. Javoblarni sharhlash orqali o'zingizga xolis xulosa chiqaring.

2. “Yaqingacha mening psixikam to'g'risida nimalarni bilmas edimu, endi nimalarni bilaman?” degan savolga yozma javob yozing.

3. Tarqatilgan metodikalar orasida o'z-o'zini baholash metodikasini toping va avval o'zingizni tekshiring, so'ngra o'rtog'ingizdan iltimos iling.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. “Umumiy psixologiya”, 1992 yil.

2. P.V.Ivanov .“Umumiy psixologiya”, 1972 yil.
3. A.N.Leont’ev. “Problem’ razvitiya psixika” , MDU, nash. 1972
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o`zbekcha izohli lug`ati. 1975 y.
6. Psixologiya atlas. M.Gomezoz tahririda. 1986 yil.
7. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil
8. E.Goziev. “Intellect psixologiyasi”. 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. “Umumiy psixologiya “ 1-kitob, Toshkent, 2002
11. M.G.Davletshin. “Psixologiya”, Izohli lugati, Toshkent 1998
12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. “Problemi obshaya psixologiya. M., 1973.

Qo`shimcha topshiriqlar:

Quyidagi mavzularda referat, doklad yozishga yoki test tuzishga harakat qiling.

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
2. Komil inson psixologiyasi.
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash.
4. Jamoa va shaxs.

Mavzuga oid ommaviy manbalardan foydalanish lozim.

Sakkizinchi mashg`ulot.

Mavzu. Ehtiyoj to`grisida tushuncha. (2 soat)

Reja

1. Faollik va faoliyat haqida tushuncha.
2. Ehtiyojlar va ularning turlari.
3. Faoliyat va uning maqsadlari.
4. Faoliyatni o`zlashtirish.
5. Faoliyatning turlari.

8 -mashg`ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savol: Faollik va faoliyat haqida tushuncha beriladi. Odamning faolligi va faollikning manbai bo`lgan insoniy ehtiyojlar to`g`risida ma`lumot beriladi.

Ikkinchi savol: Ehtiyojlar va ularning turlari haqida tushuncha beriladi. Ehtiyojlar o`z predmetining xarakterga ko`ra qanday turlarga bo`linishi tushuntiriladi.

Uchinchi savol: Faoliyat va uning maqsadlari haqida gapirib beriladi. Hayvonlarning hatti – harakati haqida gapirib beriladi. FAOLIYAT termini to`liq ochib beriladi. Faoliyatning interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalashuvi haqida tushuncha beriladi.

**To`rtinchi savol:** Faoliyatni o`zlashtirish haqida ma`lumot beriladi. Faoliyatning o`zlashtirilishi. malakalar. harakatlarning avtomatlashtirilishi va malakalarning hosil bo`lishi haqida aytib o`tiladi.

Beshinchi savol: Faoliyatning turlari haqida ma`lumot beriladi. Faoliyat turlariga misollar keltiriladi.

O`z-o`zini tekshirish uchun savollar va topshiriqlar.

1. Faoliyat nima? Tushuncha bering.
2. Faoliyatning psixologik tuzilishi?
3. Ehtiyojlar va ularning turlari, motivlar haqida tushuncha bering?.
4. A.Maslou buyicha ehtiyojlarning turlari?
5. Faoliyatni o`zlashtirish qanday amalga oshadi?

6. Ko'nikmalar va ularning shakllanishi?
7. Malakalar va ularning shakllanishi mexanizmlari?
8. Faoliyatning asosiy turlari?
9. O'yin faoliyati?
10. O'qish faoliyati?
11. Mehnat faoliyati?

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
2. G'oziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
4. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
5. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
6. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - T., 2000
7. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
8. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000
9. Klimov E. A. "Osnovi psixologii". Uchebnik. - M., 1997
10. Kovalev V. I. Motivi povedeniya i deyatelnosti. - M., 1988
11. Merlin V. S. Lekcii po psixologii motivov cheloveka. - Perm, 1971
12. Moshkova I. N., Malov S. L. Psixologiya proizvodstvennogo obucheniya. M. 1990
13. Nasinovskaya E. E. Metodi izucheniya motivatsii lichnosti. - M., 1988
14. Prikladnaya psixodiagnostika. - M., 1999
15. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
16. Rubinshteyn S. L. Osnovi obshey psixologii. - M., 1998
17. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992.
18. Vigotskiy L. S. Razvitie visshix psixicheskix funktsiy. M., 1960

To'qqizinchi mashg'ulot

Mavzu. Qiziqish haqida tushuncha. (2 soat)

Reja

1. Qiziqishning psixologik tavsifi.
2. Shaxsda ijtimoiy qiziqishlarning shakllanish jarayonini
3. Bilimlarni egallashda qiziqishlarning aqamiyati

9-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Qiziqishning psixologik tavsifi beriladi. Psixologiya fanining sunggi davrdagi ma'lumotlariga asoslangan holda qiziqishning bir nechta darajalarga ajratiladi.

Ikkinchi savol: Shaxsning individual sifatlarini tug'ma fazilatlari yoki ularni instinkt oqibati haqida aytiladi.

Uchinchi savol: Bilimlarni egallashda qiziqishlarning aqamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi. O'quvchilarning turli o'quv predmetlariga, bilim olishga bo'lgan qiziqishlari fanlar asoslarini ongli va mustahkam o'zlashtirishning asosi ekanligi haqida aytib o'tiladi. Qiziqish havasning har qanday shaxs uchun ham ahamiyati kattadir Chunki shaxs erishish uchun kurashadigan narsalarning hammasi uning qiziqish - xavaslari bilan bog'liq bo'lishi isbotlab beriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qiziqish yoki havas deb nimaga aytiladi?
2. Shaxsda ijtimoiy qiziqishlarning shakllanish jarayonini ayting?
3. Bilimlarni egallashda qiziqishlarning qanday ahamiyati bor?
4. Qiziqishlarning shaxs faoliyatidagi amaliy ahamiyatini gapiring?
5. Shaxsning faolligini ta'minlashda qiziqishlar qanday rol o'ynaydi?

Adabiyotlar:

1. Andreeva G. M. Sosialnaya psixologiya. Uchebnik - M., 1998

2. G`oziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
4. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
5. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
6. Karimova V. M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". - T., 1994
7. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
8. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma`ruzalar matni - T., 2000
9. Klimov E. A. "Osnovi psixologii". Uchebnik. - M., 1997
10. Mayers D. Sosialnaya psixologiya. - SPb., 1997
11. Morgunov E. B. Lichnost i organizatsiya. - M., 1996
12. Nemov R. S. Psixologiya M. 1990
13. Olshanskiy B. B. Prakticheskaya psixologiya dlya uchiteley. M. 1994.
14. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi. - M., 1999
15. Prikladnaya sosialnaya psixologiya. Uchebnoe posobie. - M., 1998
16. Psixologiya. Pod red. A. A. Krilova, - M., 1998
17. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
18. Rubinshteyn S. L. Osnovi obshey psixologii. - M., 1998
19. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992

O`ninchi mashg`ulot

Mavzu. Motivatsiya. (2 soat)

Reja

1. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivastiyasi.
2. Motivlarning anglanganlik darajasi.

6-Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: «Motivatsiya» tushunchasi, «motiv» tushunchasi haqida tushuncha beriladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o`zini tutishi sabablarini o`rganish bo`yicha misollar keltiriladi.

Ikkinchi savol: Motivlarning turlari haqida tushuncha beriladi. Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent — ustanovka ob'ektiga aloqador bilimlar, g`oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent — ustanovka ob'ektiga nisbatan sub'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

V. Harakat komponenti — sub'ektning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo`lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo`lish).

Bu uchala komponentlar o`zaro bir-birlari bilan bog`liqligi haqida ma`lumot beriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Motiv deganda nimani tushunasiz?
2. Motivatsiya deganda nimani tushunasiz?
3. Muvafaqqiyaga erishish va muvafaqqiyatsizlikdan qochish motivi haqida tushuncha bering?
4. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivastiyasi.
5. Motivlarning anglanganlik darajasini tushuntirib bering.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov. "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont`ev. "Problem` razvitiya psixika", MDU, nash. 1972 yil.
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. 1975y.
6. Psixologiya atlas. M.Gomez o tahririda. 1986 yil.

7. Psixologiya izohli lug'ati. 1997 yil.
8. E.Goziev. "Intellekt psixologiyasi". 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. "Umumiy psixologiya" 1-kitob, Toshkent, 2002 yil.
11. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998 yil.
12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002 yil.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982 yil.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. "Problemi obshaya psixologiya. M.,1973y.

O`n birinchi mashg`ulot

Mavzu. Sezgilar. (2 soat)

Reja

1. Sezgilar haqida tushuncha.
2. Sezgilarining turlari.
3. Sezgilarining umumiy qonuniyatlari.

11-Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Sezgilar haqida tushuncha. Sezgi - ongimizga ayni vaqtda, bevosita ta`sir qilib turgan narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirishdan iborat psixik jaryondir. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta`sir qilib sezgi hosil qiladi. Sezgi a`zolari axborotni qabul qilib oladi va saralaydi.

Sezgilar va ularning mohiyati haqida nazariyalar haqida tushunchalar beriladi.

Har qanday analizator uch qismdan iborat:

1) tashqi ta`sir kuchini ichki nerv quvvatiga (jarayoniga) o`tkazadigan maxsus transformator - analizatorning pereferik qismi;

2) analizatorning pereferik qismini markaziy qism bilan bog`laydigan o`tkazish yo`llari. Ular afferent (markazga intiluvchi), efferent (markazdan qochuvchi) yo`llardan iborat bo`ladi.

3) markaziy, pereferiyadan keluvchi signallarni qabul qilib, qayta ishlovchi qism (miya qismi).

Analizatorlarning periferik bo`limida motor va hissiy qismlar uyg`unlashganligi sababli ular ta`sir qilayotgan qo`zg`atuvchilarning ob`ektiv xususiyatlarini aynan aks ettiradi.

Ikkinchi savol: Sezgilarining turlari

Sezgilar ta`sir qilayotgan qo`zg`atuvchining xarakteriga, qo`zg`alishni qabul qilish masofasi, reseptorlarning joylashgan o`rinlariga ko`ra klassifikatsiya qilinadi. Reseptorlarning joylashgan o`rniga ko`ra sezgilarining quyidagi turlari mavjud:

1) tashqi olamdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan va tananing tashqi yuzasida reseptorlari bo`lgan sezgilar - EKTROTSEPTIV SEZGILAR;

2) tananing ichki a`zolari va to`qimalarida joylashgan va tananing ichki holatini aks ettiruvchi sezgilar - INTEROTSEPTIV SEZGILAR;

3) reseptorlari paylarda va mushaklarda joylashgan PROPRIOTSEPTIV SEZGILAR. Ular gavamizning holati va harakatlari haqida ma`lumotlar berib turadilar.

Ekstrotseptiv sezgilarining o`zlari ikki guruhga - KONTAKT ( bevosita aloqa bog`lovchi) va DISTANT sezgilarga ajratiladilar. Kontakt sezgilarga (kontakt reseptorlar orqali sezgi hosil bo`ladi) quyidagilar kiradi: ko`rish, eshitish, hid bilish, teri sezgisi, ta`m bilish sezgilari. Sezgilarining bu klassifikatsiyasi modallik bo`yicha klassifikatsiya deyiladi va ular sezgilarining klassik klassifikatsiyasi ham deb ataladi. Chunki ular Aristotel' tomonidan ko`rsatib o`tilgan sezgilardir. Ular orasidan teri sezgisining o`zi bir qancha turlarga bo`linadi (tuyush, harorat, og`rik kabi).

Sezgilarining umumiy qonuniyatlari.

Sifat - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgilardan farqlaydi va shu sezgi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisida tovushning balandligi, mayinligi, zo'rliqi; ko'rish sezgisining boyligi, ranglari va h.k. Sezgilarning sifatlarining boyligi va rang-barangligi materiyaning rang-barangligini aks ettiradi. Sezgilarning intensivligi - ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va analizatorning funktsional holati bilan belgilanadi.

ADAPTASIYA

Analizatorlarning sezgirligi bir qator fiziologik, psixologik va muhitning ta'siri ostida o'zgaradi. Bu o'zgarishlar orasida adaptasiya hodisasi alohida o'ringa ega. Adaptasiya yoki moslashuv deganda qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgi organlari sezgirligining o'zgarishi tushuniladi. Adaptasiyaning uch xil turi farqlanadi.

1. Qo'zg'atuvchining davomli ta'siri natijasida sezgilarning to'la yuqolishi. Agar sezgi organiga biror qo'zg'atuvchi doimo ta'sir qilib tursa sezgi batamom yo'qolib ketish tendentsiyasiga ega. Masalan, teriga tegib turgan engil yuk tez orada sezilmay qoladi (qo'l soati borligini biz sezmaymiz). Bir hid bor joyda uzoq vaqt bo'lsak bu hid sezilmay qoladi.

2. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining sezgirligining zaiflashishi, kamayishi (negativ adaptasiya). Agar qo'limizni muzday suvda tutib tursak teridagi sovuqni sezish reseptorlarining sezgirligi kamayadi. Ko'zga kuchli yorug'lik ta'sir qilib tursa ko'zning sezgirligi kamayib, ko'z shu yorug'likka moslashadi. Bu hodisa yorug'lik adaptasiyasi deyiladi.

3. Kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining sezgirligining oshishi. Bu pozitiv adaptasiya deb ataladi. Masalan, kinozalga kechikib kirgach bir qancha vaqt hech narsani ko'ra olmaymiz. Birozdan keyin biz atrofni ko'ra boshlaymiz. Ko'zning sezgirligi oshadi. Buni qorong'ilik adaptasiyasi deyiladi.

SENSIBILIZASIYA. Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi hodisasiga sensibilizatsiya deyiladi. Sezgilarning o'zaro ta'siri ostida ularning sezgirligining oshishi qo'zg'alishning kontsentratsiyasi va irradiatsiya jarayonlari bilan tushuntiriladi.

SINESTEZIYA. Qo'zg'atuvchining biron-bir analizatorga ta'siri natijasida boshqa bir analizatorga xos sezgining paydo bo'lishi sinesteziya deyiladi. Bunga "rangni eshitish" hodisasini misol qilib olish mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sezgi haqida ma'lumot bering?
2. Analizatorlar nima va ularning tuzilishi?
3. Modalligi bo'yicha sezgilarning qanday turlari mavjud?
4. Reseptorlarning joylashgan o'rniga ko'ra sezgilarning qanday turlari mavjud?
5. Sezgilarning asosiy qonuniyatlari?
6. Sezgi organlarining adaptasiya hodisasi?
7. Sinesteziya va sensibilizatsiyalar nima?

Adabiyotlar:

1. Bruner D. S. Psixologiya poznaniya. - M., 1977
2. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
3. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
4. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
5. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - T., 2000
6. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
7. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000
8. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
9. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992.

O'n ikkinchi mashg'ulot

Mavzu.Idrok. (2 soat)

Reja

1. Idrok haqida tushuncha.
2. Idrokning xususiyatlari.
3. Idrokning turlari.

12-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Idrok haqida tushuncha.

Idrok - inson ongida sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni tartibga solinib, yaxlit, bir butun holda aks ettirilishi. Idrok narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qiladi. Idrok narsa va hodisalarni yaxlit, bir butun holda aks ettiradi. **IDROKNING PREDMETLILIGI.** Idrokning predmetliligi ob'ektivlash ham deb ataladi va tashqi olamdan olingan ma'lumotlarni shu olamning o'ziga qaratishida ifodalanadi. Tashqi olamdan kelayotgan ma'lumot, obraz (masalan, o'qilayotgan kitobning tasviri) bizning sezgi organlarimizda emas (ko'z ichida emas), balki bizning tanamizdan tashqarida, tashqi olamda deb idrok qilinadi.

IDROKNING YAXLITLIGI. Yuqorida ko'rsatganimizdek, idrok sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, narsalarning yaxlit obrazidir. O'z-o'zida ravshanki, bu yaxlit obraz turli modallikdagi sezgilar orqali olingan narsalarning ayrim xususiyat va sifatleri haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Ikkinchi savol: Idrokning xususiyatlari. **IDROKNING MA'LUM TARTIBDA TUZILGANLIGI.** Idrok ko'p darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga to'g'ri kelmaydi va bunday sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat emas. Biz shu sezgilardan abstraktlashgan, ma'lum vaqt davomida tarkib topadigan elementlarning munosabatining umumlashgan tuzilishini idrok qilamiz. Musiqa eshitayotgan kishi uning tuzilishini, uning elementlarining o'zaro munosabatini idrok qiladi. Chunki musiqa alohida notalardan iborat emas. Notalarning o'zaro munosabatigina musiqani tashqil qiladi. Turli notalarni turli ketma-ketlikda, tartibda tuzib, turlicha musiqa hosil qilinadi.

IDROKNING KONSTANTLIGI. Idrok qilinayotgan tashqi olam, muhit doimo o'zgarishda, turli holatlarda, turli sharoitlarda nomoyon bo'ladi. Turlicha yorug'likda, fazoda turli holatda, turli masofada bo'ladi. Bunday omillar ta'siri ostida sezgi organlarimizga kelayotgan ma'lumotlar turlicha bo'ladi, ularni idrok qilish ham turlicha bo'lishi kerak. Ammo bizning pertseptiv (idrok qilish) tizimimiz bo'layotgan o'zgarishlarni tugirlash, tiklash qobiliyatiga ega. Shu tufayli biz atrofimizdagi narsalarning shaklini, rangini, katta-kichikligini nisbatan o'zgarmas (konstant) holda idrok qilamiz. Idrokning bu xususiyatini ko'rish idroki misolida tushuntiramiz. Narsaning uzoq-yaqinligiga qarab uning ko'z to'r pardasidagi tasviri ham kichik yoki katta bo'ladi. Biz uzoqdagi narsani kichik, yaqindagini katta deb idrok qilmaymiz. Agar bir qo'limizni uzoqqa cho'zib, ikkinchisini ko'zga yaqin ushlab tursak ham biz ikkala qo'limizni, barmoqlarimizni kattargan yoki kichraygan holda emas, balki uzoq yoki yaqin sifatida idrok qilamiz. Teatrda orqa joylarda va oldinda o'tirgan tomoshobin sahnadagi aktiyorlarni bir xil idrok qiladi (katta yoki kichik deb emas).

Idrok jarayonining konstantligining manbai **PERTSEPTIV TIZIMNING FAOL HARAKATIDIR.** Masalan, oynaga qarab turib yozishga harakat qilinsa tez oradi kishi avvaliga qiynaladi, keyinroq esa qo'lini to'g'ri boshqarishga o'rganadi. Shuningdek tasvirlarni turli burchak ostida o'zgartirib beruvchi ko'zoynaklar uzoq muddat taqib yurilsa kishi atrof muhitni to'g'ri idrok qilishga o'rganadi. Agar idrokning konstantligi bo'lmasa odam benihoya o'zgaruvchan olamni anglay olmas edi. Idrokning konstantligi tevarak atrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

IDROKNING ANGLANGANLIGI. Ma'lumki idrok qo'zg'atuvchining reseptorlarga bevosita ta'siri natijasida yuzaga kelsa ham, biroq pertseptiv obrazlar hamma vaqt ma'lum **MA'NOGA** ega bo'ladi. Odamning idroki tafakkur bilan, narsaning mohiyatini tushunish bilan mustahkam bog'liqdir. Narsani ongli idrok qilish - uni fikran atash degan ma'noni anglatadi. Biz

idrok qilayotgan narsalarimiz haqidagi ma'lumotlarni o'zimizgi tanish bo'lgan narsalarga o'xshashligini aniqlashga, biror sinfga kiritishga, ba'zi kategoriyalarga qo'shishga intilamiz.

APPERTSEPTSIYA Idrok, uni yuzaga keltirgan qo'zg'atuvchi bilan birgalikda idrok qilayotgan sub'ektning o'ziga tegishli bir qator omillarga ham bog'liq. YAkka holda olingan ko'z, yoki quloq idrok qila olmaydi, balki tirik odam idrok qiladi. Konkret tirik odamning doimo turli qiziqishlari, ehtiyojlari, hohishi, hissiyotlari, munosabati bo'lib, ular idrok jarayoniga ta'sir qiladi. Idrokning odam psixik hayoti mazmuniga va odam shaxsining xususiyatlariga bog'liqligi **APPERTSEPTSIYA** deb yuritiladi. Idrok jarayoniga odamning oldingi tajribalari katta ta'sir qiladi. Idrok qilish jarayonida odam sezgi organlar orqali olayotgan ma'lumotlar to'grisida turli gipoteza (farazlarni) ilgari suradi va tekshirib ko'radi. Idrok qilinayotgan ob'ekt haqida, bevosita ravishda, qancha kam ma'lumot olinsa, farazga shuncha ko'p o'rin beriladi.

Uchinchi savol: IDROKNING TURLARI

Idrok klassifikatsiyasining asosi, sezgilardagi kabi, idrok jarayonida ishtirok qiluvchi analizatorlarning har xilligidir. Idrok jarayonida qanday analizatorning yetakchilik qilishiga ko'ra **KO'RISH, ESHITISH, TUYUSH, KINESTEZIK, HID BILISH VA TA'M BILISH** idroklari farqlanadi.

Idrokning sof holdagi turlari kam uchraydi. Odatda ular birlashib ketgan.

Bundan tashqari materiyaning yashash shakllariga ko'ra ham idrok turlari, **FAZONI, VAQTNI, HARAkatNI** idrok qilish farqlanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Idrok haqida tushuncha bering. Uning sezgidan farqlari?
2. Idrokning asosiy xususiyatlari?
3. Appertseptsiya hodisasini tushuntiring.
4. Fazoni idrok qilish?
5. Vakti idrok qilish?
6. Harakatni idrok qilish?

Adabiyotlar:

1. Bruner D. S. Psixologiya poznaniya. - M., 1977
2. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
3. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
4. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
5. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - T., 2000
6. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
7. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000
8. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
9. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy ta'hriri ostida. T.1992.

O'n uchinchi mashg'ulot

Mavzu.Xotira. (2 soat)

Reja

1. Xotira haqida tushuncha.
2. Xotira mexanizmlari.
3. Xotira turlari.
4. Xotira jarayonlari.

13-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Xotira haqida tushuncha. Xotira, uning jarayonlari (esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish), hamda turlari (faollik xususiyatiga ko'ra, faoliyat maqsadiga ko'ra, materialni esda olib qolish muddatiga ko'ra) haqida ma'lumot berish.

1. Xotira nima?
2. Xotira mexanizmlari haqidagi nazariyalarni tushuntiring?
3. Xotiraning fiziologik mexanizmlari?
4. Shaxsning maqsadiga ko'ra xotiraning qanday turlari farqlanadi?
5. Predmetiga ko'ra xotiraning qanday turlari farqlanadi?
6. Saklash muddatiga ko'ra xotiraning qanday turlari farqlanadi?
7. Xotira jarayonlari: esda olib qolish?
8. Xotira jarayonlari: esda saqlash?
9. Xotira jarayonlari: esga tushirish?
10. Unitish va unga qanday qarshi kurashish usullari mavjud?

Ikkinchi savol: Xotira mexanizmlari. Hozirgi kunda xotira mexanizmlari haqida juda ko'plab nazariyalar mavjud. Ularning barchasini bir necha guruhlariga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh nazariyalar - psixologik nazariyalar, ikkinchisi - neyrofiziologik nazariyalar. Ularga keyingi yillarda yangi nazariyalar, uchinchi yo'nalish - bioximik yo'nalishdagi nazariyalar qo'shilmoqda.

Assosiativ nazariyaning asosiy tushunchasi ASSOSIATSIYA tushunchasidir. **ASSOSIATSIYA** - aloqa bog'lanish degan ma'noni bildiradi va hamma psixik hodisalarni tushuntiruvchi universal mexanizm sifatida qaraladi.

Geshtal'tizm (nemischa "gestalt" - obraz degan ma'noni anglatadi) - psixologik nazariya. Bu nazariyaning asosiy tushunchasi - geshtal't tushunchasidir. Geshtal't tushunchasi yaxlit, bir butun tashkilotni (bir butun organizmni) tarkibiy qismlarga bo'lib bo'lmaydigan tuzilishini anglatadi.

Uchinchi savol: Xotira turlari. Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning nomoyon bo'lish shakllari ham nihoyat darajada har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bulinadi (birlashtiriladi).

1. Ko'proq faoliyatda ko'rinadigan psixik aktivlik xarakteriga ko'ra xotiraning harakat, emosional (hissiy), obrazli va SO'Z-mantikiy turlari farqlanadi.
2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko'ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bulinadi.
3. Materialni qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ xotira turlariga bo'linadi.

HARAKAT, EMOSIONAL (HISSIY), OBRAZLI VA SO'Z-MANTIQUIY TURLARI.

Inson faoliyatining har xil turlarida psixik faollikning turlicha ko'rinishlari ustun turishi mumkin. Shunga ko'ra xotiraning ham ma'lum bir turi xizmat qiladi. Bo'lar harakat, emosional (hissiy), obrazli va SO'Z-mantiquiy xotiralardir.

HARAKAT XOTIRASI - turli xil harakatlarni va ularning tizimlarini esga olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat. Ba'zi kishilarda xotiraning bu turi boshqalaridan ustun turadi. Ko'pchilik bu xotira turining mavjudligini payqamaydi. Holbuki xotiraning bu turi har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar harakat xotirasi bo'lmaganda edi, biron harakatni amalga oshirish uchun biz shu harakatning o'zini har gal "boshdan boshlab" o'rganar edik. Shu jumladan yurish ham harakat xotirasi mahsulidir.

EMOSIONAL (hissiy) XOTIRA - tuyg'u hissiyotga xos xotiradir. emosional (hissiy) xotira biz boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlab qolgan hissiyotlar yo harakatga undovchi yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal sifatida nomoyon bo'ladi. O'zga kishiga hamdard bo'lish qobiliyati, kitob qahramoni bilan birga qayg'urish hissiy xotiraga asoslanadi.

OBRAZLI XOTIRA - tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, hidlar, ta'mlar bilan bog'liq xotiradir. Xotiraning bu turi KO'RISH, eSHITISH, TUYISH, HID BILISH va TA'M xotiralaridan iborat bo'ladi. Xotiraning bu turlari turli odamlarda turlicha rivojlangan bo'lib, ko'pchilikda ko'rish va eshitish etakchi rol o'ynaydi. Ammo ba'zi kasblarda va ba'zi ko'rish va eshitish qobiliyatini yo'qotgan kishilarda yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Ba'zan **EYDETIK** deb atalgan ("eydos" - yunoncha so'z bo'lib **OBRAZ** degan ma'noni anglatadi) xotira turiga ega odamlar ham uchraydi. Ularda ko'rgan predmetlar, sharoitlar butunligicha, xuddi rasmga tushirib olingandek butun, barcha tafsilotlari bilan eslab qolinadi. Ular shu vaziyatni xuddi hozir idrok qilayotgandek "ko'ra oladilar".

SO'Z-MANTIQUIY XOTIRAning mazmunini bizning fikrlarimiz tashkil qiladi. So'zlar bo'lmasa fikrlar ham bo'la olmaydi. Shuning uchun ham fikrlarimizga xos xotira shunchaki mantiqiy xotira deb emas, balki **SO'Z-mantiq** xotirasi deb ataladi. **SO'Z-mantiq** xotirada ikkinchi signallar tizimi asosiy rol o'ynaydi. Bu xotira turi insongagina xos xotira turidir. Xotiraning bu turi ijtimoiy tajribani o'rganishda, uni keyingi avlodga uzatishda - bilimlarni o'zlashtirishda, tarbiya jarayonida hal qiluvchi o'ringa ega.

IXTIYORSIZ VA IXTIYORIY XOTIRA

Faoliyat maqsadiga ko'ra xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari farqlanadi. Muayyan maqsadsiz biron bir narsani esda olib qolish va eslash, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz ravishda qayta esga tushirish **IXTIYORSIZ XOTIRA** deyiladi. Biz o'z oldimizga biron maqsad qo'yib esda olib qolganimizda **IXTIYORIY XOTIRA** haqida gap boradi. Ixtiyoriy ravishda esda olib qolish va esga tushurish jarayonlarida maxsus mnemik ("mneme" lotincha **SO'Z** bo'lib xotira degan ma'noni anglatadi) harakatlar tarzida amalga oshiriladi.

QISQA MUDDATLI VA UZOQ MUDDATLI XOTIRA. OPERATIV XOTIRA.

Ma'lum bir materialni esda olib qolish uchun va uni xotirada mustahkamlash uchun u sub'ekt tomonidan tegishli ravishda ishlab chiqilishi lozim. Bunday ishlab chiqish ma'lum miqdorda vaqt talab qiladi. Bu vaqt izlarni **KONSOLIDATSIYALASH** (lotincha consolidatio so'zidan olingan bo'lib, mustahkamlash degan ma'noni anglatadi) vaqti deb ataladi. Biz ma'lum daqiqa davomida hozir bevosita idrok qilmayotgan narsalarni go'yo ko'rishda, eshitishda davom etamiz (xuddi ko'z o'ngimizda turganday yoki qulog'imizda eshitilayotganday bo'laveradi). Bu jarayonlar beqaror va o'zgaruvchan bo'lib, qisqa muddatli xotira deb nom olgan. Juda ko'p takrorlashlar, qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlab qolish xarakterli bo'lgan **UZOQ MUDDATLI XOTIRADAN** farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so'ng juda qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Qisqa muddatli xotira atamasi o'rinda adabiyotlarda, ko'pincha, uning turli sinonimlari - "bir lahzalik", "dastlabki", "zudlik", "qisqa vaqtli" va shu kabi atamalar qo'llaniladi.

OPERATIV XOTIRA tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan aktual harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik jarayonlarni bildiradi. Masalan, arifmetik amalni bajarayotganda biz oraliq natijalarni "yodimizda" saqlab turamiz. Ishlatilgan, ishlangan materiallar esa esdan chiqarib yuborilaveradi. Ish tugatilgach ko'pincha barcha informatsiyalar esdan chiqarib yuboriladi. Shu sababli xotiraning bu turini "ishchi" xotira ham deb yuritiladi.

To'rtinchi savol: XOTIRA JARAYONLARI

Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham farqlanadi. Bo'lar esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushirish (aktuallashtirish, qayta tiklash), esda saqlash va unitish jarayonlaridir.

ESDA OLIB QOLISH natijasida yangi materialni oldin o'zlashtirilganlari bilan bog'lash orqali mustahkamlanadi. esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan

boyitishning zaruriy shartidir. esda olib qolish tanlovchanlik xarakteriga ega. Eslab qolish quyidagilarga bog'liq:

- inson faoliyatida aktiv qo'llagan, harakat qilgan narsalarni yaxshi eslab qoladi.
- materialni eslab qolish shaxsning motivlari, maqsadlari va faoliyat usullari bilan belgilanadi.

Esda olib qolish ham qisqa muddatli va uzoq muddatli, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish tarzida bo'ladi. Shulardan ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolishga to'xtalib o'tamiz.

Ixtiyorsiz esda olib qolishda material go'yoki "o'z-o'zidan" esda saqlanib qoladi. Bu nimaga bog'liq? O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish quyidagi omillarga bog'liq:

- material faoliyatning asosiy maqsadining mazmuniga kirsya yaxshi esda qoladi. Agar material faoliyatni amalga oshirishning sharoitlariga, usullariga kirsya yaxshi esda saqlab qolinmaydi.
- faol ravishda aqliy ishni yuzaga keltirgan material ixtiyorsiz ravishda yaxshi esda qoladi;
- muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan, bizda qiziqish va hissiyot tug'dirgan material.

Ixtiyoriy esda olib qolish maxsus mnemik harakatlar mahsulidir. Bunda nimani va qanday qilib eslab qolishni aniqlash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

- esda olib qolishning motivi;
- esda olib qolishning ratsional (oqilona) usullaridan foydalanish;
- tushunish, mantiqiy anglab esda olib qolish;
- o'rganilayotgan materialning rejasini tuzish;
- taqqoslash;
- tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish;
- obrazli bog'lanishlarga keng suyanish;
- qayta esga tushirish;
- qismlarga bo'lib va yaxlit takrorlash kabilar.

Qayta esga tushirish - ilgari esga olib kolingan materialni aktuallashtirish. Qayta esga tushirishning **tanish, qayta esga tushirish va xotirlash** kabi turlari farqlanadi.

Tanish - qandaydir ob'ektni qayta idrok qilish sharoitida uni qayta esga tushirish.

Qayta esga tushirish tanishdan shunisi bilan farq qiladiki, u qayta esga tushirilayotgan ob'ektni qayta idrok kilmay turib amalga oshiriladi.

Xotirlash - o'tmishdagi obrazlarimizni zamon va makonda lokallashtirilgan holda qayta esga tushirishdan iborat.

Unitish - esda olib qolingan materialni vaqtinchalik yoki butunlay qayta tiklay olmaslik.

Unitish turlari: butunlay unitish, qisman unitish, vaqtinchalik unitish.

Xotiraning ustunlik qiluvchi tiplariga ko'ra individual farqlar mavjud. Ko'rgazmali obrazli, so'z-abstrakt va oraliq tipdagi xotira tiplari farqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Xotira jarayoniga ta'rif bering.
2. Xotiraning qanday jarayonlarini bilasiz?
3. Xotira turlari haqida ma'lumot bering.
4. Xotiraning boshqa bilish jarayonlari bilan bog'liqligini tushuntiring.
5. O'quv faoliyatida xotiraning roli haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Bruner D. S. Psixologiya poznaniya. - M., 1977
2. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
3. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
4. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
5. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - T., 2000
6. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
7. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000

8. Nemov R. S. Psixologiya M. 1990
9. Nemov R. S. Psixologiya. - Kn.1. Obshie osnovi psixologii. - M., 1994
10. Nemov R. S. Psixologiya. - V 2-x kn. Kn.1. - M., 1998
11. Nemov R. S. Psixologiya. V 3-x kn. - Kn.1. - M., 1998
12. Psixologiya. Uchebnik. - Pod red. A. Krilova - M., 1998
13. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy taʼhiri ostida. T.1992.

Toʻrtinchi savol: Xotiraning fiziologik mexanizmlari va xotira nazariyalari (fiziologik, bioximik va psixologik) haqida maʼlumot berish.

Nazorat savollari:

1. Xotiraning fiziologik mexanizmini nimalar tashkil qiladi?
2. Xotira nazariyalari haqida tushuncha bering.
3. Inson xotirasini yaxshi boʻlishi qanday omillarga bogʻliq?
4. Xotiraning samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
5. Xotiraning oʻziga xos individual uslubi nimalardan iborat?

Oʻn toʻrtinchi mashgʻulot

Mavzu. Tafakkur. (2 soat)

Reja

1. Tafakkur haqida tushuncha.
2. Fikr yuritish operatsiyalari.
3. Tafakkurning asosiy formalari.
4. Tafakkurning individuallik xususiyatlari.
5. Tafakkur turlari haqida tushuncha.

Mashgʻulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: Tafakkur haqida umumiy tushuncha; tafakkurining boshqa psixik protsesslar bilan bogʻliqligi; tafakkurning eng murakkab psixik protsess ekanligi; tafakkurning nerv-fiziologik asoslari haqida tushuncha beriladi.

Ikkinchi savolda: insonning fikr yuritish faoliyatida foydalaniladigan operatsiyalar; taqqoslash, analiz, sintez, mavhum abstraksiyalashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, turkum sinflarga ajratish kabilar haqida tushuncha berish kerak.

Uchinchi savolda: fikr yuritish formalaridan: tushuncha va uning turlari; hukm va uning turlari; xulosa va uning turlari; tafakkurda muammoli vaziyat va masala; tafakkurda masala yechish haqida tushuncha beriladi.

Toʻrtinchi savolda: shaxsga xos individual xususiyatlar bilan bogʻliq holda: tafakkurning mustaqilligi, epchilligi, fikrning tezligi, hukm va xulosaning asoslanishi, ishonchliligi va hokazolar haqida tushuncha berilishi zarur.

Beshinchi savolda: koʻrgazmali harakat tafakkuri; koʻrgazmali obrazli tafakkur, konkret va mavhum abstrakt tafakkur haqida tushuncha berilishi kerak.

Oʻn beshinchi mashgʻulot

Mavzu. Xayol. (2 soat)

Reja

1. Xayol haqida tushuncha.
2. Xayolning turlari va ularning oʻzaro aloqasi. Xayolning maxsus turi sifatida orzu haqida tushuncha.
3. Xayoliy obrazlar yaratish usullari.
4. Xayol va shaxs.
5. Inson ijodiy faoliyatida xayolning tutgan oʻrni va ahamiyati.

Mashgʻulot savollariga javob berish dasturi

Birinch savolda: xotira tasavvurlari va xayoliy tasavvurlarni qiyoslab, ularning farqi tushuntiriladi: xayol jarayoniga ta'rif beriladi; xayolning fiziologik asosi tushuntiriladi.

Ikkinchi savolda: ixtiyoriy, ixtiyorsiz xayol, tasavur xayoli, ijodiy xayol haqida tushuncha beriladi. Xayol jarayonlarining maxsus turi sifatida orzu haqida tushuncha beriladi va uning ijodiy xayoldan farqli tomonlari yoritiladi.

Uchinchi savolda: xayol obrazlarini yaratishning asosiy usullari: kichikni kattalashtirish, kattani juda kichiklashtiri, agglyutinatsiya, tipiklashtirish kabilar haqida tushuncha berilishi kerak.

To'rtinchi savolda: xayolning shaxsning boshqa psixik jarayonlari va xususiyatlari bilan bog'liqligi; kishining aqli bilan hayoli o'rtasida bog'liqlik mavjud ekanligi; xayolning shaxs irodaviy sifatleri va hissiyotlar bilan bog'liqligi; xayolning xususiyatlari shaxsning ma'naviy qiyofasi to'g'isida hukm chiqarish uchun imkon bera olishi mumkinligi haqida tushuncha berib ketish kerak.

Beshinchi savolda: xayol jarayonining san'at, me'morchiligida, texnikaviy va ilmiy ijodiyotdagi, badiiy faoliyat, pedagogik faoliyat va boshqa sohalardagi ahamiyati ochib berilishi kerak.

O'n oltinchi mashg'ulot

Mavzu. Diqqat. (2 soat)

Reja

1. Diqqat va uning turlari.
2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xotira va uning jarayonlari hamda turlari.
4. Xotiraning fiziologik mexanizmlari va nazariyalari.
5. O'quvchilar diqqatini va xotirasini o'rganish metodlari.

16-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinch savol: Diqqat va uning turlari (ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat) haqida ma'lumot berish, diqqat, uning inson hayoti va faoliyatidagi roli haqida tushuncha berish.

Diqqat turlati va ularni qiyosiy xarakteristikasi

Diqqat turi	Paydo bo'lish shartlari	Asosiy xarakteristikasi	Asoslari
Ixtiyoriy	Vazifani qabul qilishi	Vazifaga asosan yo'nalganlik, irodaviy zo'r berish, uzoq muddatli diqqatning to'planganligi to'liqtiradi	Ikkinchi signal sistemasini yetakchi o'rni
Ixtiyoriydan so'nggi diqqat	Qiziqishi bilan yuzaga kelgan faoliyatga "kirish"	Maqsadga yo'nalganlik saqlab qolinadi, toliqish bo'lmaydi, qiziqish ortadi.	Faoliyat jarayoniga bo'lgan qiziqishi dominantasidi.
Ixtiyorsiz diqqat	Kuchli qo'zg'atuvchi asosida yuzaga keladi.	Beixtiyoriylik, engillik, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o'tiladi.	Shaxsni qiziqishini namoyon qilyvch yoki xarakterlovchi dominanta

Nazorat savollari:

1. Diqqatga ta'rif bering.
2. Diqqat turlarini misollar yordamida tushuntiring.
3. Inson faoliyatida diqqatning ahamiyati nimada?

Ikkinchi savol: Diqqatning fiziologik mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari (ko'лами, barqarorligi, bo'linishi, ko'chishi, parishonxotirlik) haqida tushuncha berish.

Nazorat savollari:

1. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini nimalar tashkil qiladi?
2. Diqqatning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Diqqat va ongning bog'liqligi haqida nima deya olasiz?
4. Diqqatning salbiy xususiyatlarini qanday izohlaysiz?

Uchunchi savol: O'quvchilar diqqatini va xotirasini o'rganish metodlari haqida ma'lumot berish. O'quv tarbiya jarayonini tashkil etishda diqqatning barcha turlariga asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quv jarayonida ixtiyorsiz diqqat muhim rol o'ynaydi. Ixtiyorsiz diqqatning boshlangich sinflardagi roli ayniqsa kattadir. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ravishda biror narsaga qaratish qobiliyati sust rivojlangan bo'ladi. Ish tajribasida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni birga qo'shib olib borish va ixtiyorsiz diqqatga tayangan holda ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash zarur. Butun o'qitish jarayonini to'g'ri va puxta uyushtirish o'quvchi diqqatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Diqqat ta'limning muvaffakiyatligi shartlaridan biri bo'lgani holda uning shakllanishi ham ushbu jarayonining o'zida yuz beradi.

O'quv faoliyati ayniqsa ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning dars paytidagi diqqati darsning tuzilish xususiyatlari bilan belgilanadi, o'rganilayotgan materialning mazmuniga ham, uning o'qituvchi tomonidan bayon qilinishiga ham bog'liq bo'ladi. O'quvchilar diqqatining safarbar etilishi o'qituvchi nutqning xususiyatlariga, uning aniqligi va ifodaliligiga va shu kabilarga ham bog'liqdir. Diqqatni jalb qilishda ko'rgazmalilik (kartinalar, jadvallar, chizmalar va boshqalar)dan maqsadga muvofiq foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning diqqatining uyushtirishida o'qituvchilarning izchil va muntazam talabchanligi muhim rol o'ynaydi. Ba'zi psixologlar (P.Ya.Gal'perin) diqqatni nazoratining alohida psixologik ta'siri deb tushunadilar. O'quvchilar diqqatining yosh davr xususiyatlarini ham, individual xususiyatlarini ham hisobga olish ta'lim tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Masalan, kichik maktab yoshida diqqatning yetarli darajada ob'ektga to'planmaganligiga, jumladan aqliy faolikka yetarli emasligiga, o'quv faoliyati ko'nikma va malakalarining shakllanmaganligiga, bola irodasining kuchsizligi sabab bo'lishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda diqqatning tashqi ko'rinishidagi individual xususiyatlarni ham inobatga olish muhimdir. Tashqi belgilariga - aft-angorning o'zgachaligiga, yuzlarning ifodasiga va nigohning qaratilganligiga qarab diqqatning yo'naltirilganligini va uning to'planganligi darajasini aniqlash mumkin.

Koos kubiklari metodikasi 1923 yilda S.C Kons tomonidan taklif etilgan bo'lib, fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik ko'rish yasash xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika D.Wechslnerning (1959-1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan.

Link kubi metodikasi diqqat barqarorligini, ziyrakligini, aniqlashga imkon beradi.

P'eron-Ruzer metodikasi ko'rish-yasash xususiyatlarini, maqsadga yo'nalgan ko'nikmalarini, egallash imkoniyatlarini, xarakterlarning yangi usullarini o'zlashtirishni o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika yordamida ixtiyoriy diqqat hajmi, uning barqarorligi haqida bilib olish mumkin.

Diqqatning ko'chishi, uzoq davom etadigan aqliy ishga qobiliyatini o'rganish maqsadida I.V.Kruk (1986) tomonidan taklif etilgan metodikaning o'zgartirilgan variantini etilgan metodikaning o'zgartirilgan variantini qo'llash mumkin.

Shul't jadvali bo'yicha sonlarni izlash metodika diqqatning ko'chishi va bo'linish xususiyatlarini, sensomotor reaksiyalar tezligini o'rganish uchun foydalaniladi.

Krepelin bo'yicha sanash va hisoblash metodikadan murakkab sezgi harakat reaksiyalarini, ish qobiliyatini, ixtiyoriy diqqat barqarorligini aniqlash, psixik jarayonlar kechishining tezligini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Bulardan korrektur sinovi metodikasi diqqatning tebranishini ko'rish analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko'ruv qo'zg'atuvchilarga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi.

Psixologiyada xotirani o`rganish uchun maxsus metodikalar mavjud.

R.Meili testi 1961 yilda ishlab chiqarilgan bo`lib, 7-14 yoshli bolalar kattalarning ko`rish va eshitish xotirasini o`rganishda foydalaniladi. Tadqiqot ikki bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va ko`rish xotirasi o`rganiladi. Ikkinchi bosqichda tadqiqotchi o`qib bergan so`zlarni, predmetlarning nomlarini eshitib esda olib qolish qobiliyati o`rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda o`tkazilmaydi, bu esa xotiraning o`rganilayotgan xususiyatlarini yaxshilab tahlil qilishga imkon beradi.

Ko`rish xotirasi xususiyatlarini D.Wechsler (1945) taklif etilgan metodika yordamida o`rganish mumkin. Bu metodika xotira shkalasini o`rganish subtestlaridan biridir. Sinaluvchiga turli geometrik figuralar tasvirlangan rasmlarga qarash taklif etiladi. Har bir rasm sinaluvchiga 10 soniya ko`rsatiladi. Keyin sinaluvchi toza oq qog`ozda ko`rgan narsasini qayta esga tushirib, chizish kerak. Tajriba natijalarini miqdoriy tahlil qilish kerak.

Ko`rish xotirasini o`rganish testini Benton (1952) turli shakldagi rasmlarni ko`rib esda olib qolish xususiyatlarini ishlab chiqqan. Sinaluvchiga ko`rsatiladigan rasmlar 3 guruhga birlashtirilgan. Barcha guruhlar o`zaro teng. Ularning har biri 10 ta namuna kartochkalardan tuzilgan. Kartochkalarda bir nechta oddiy geometrik figuralar aks ettirilgan.

Bavosita esda olib qolish metodikasi yordamida (A.N.Leont`ev, 1928) faqatgina assotsiativ, mantiqiy xotirani emas, balki tafakkur xususiyatlarini ham aniqlash mumkin.

Bavosita esda olib qolish xususiyatlarini piktogramma, ya`ni rasimli assotsiatsiyalar metodi orqali ham o`rganish mumkin. Piktogramma eksperimental psixologik tadqiqot usuli sifatida birinchi marta L.V.Zankov (1935) tomonidan qo`llanilgan.

Rasm va so`z o`rtasidagi assotsiativ aloqani shakllantirish jarayonida inson shunday mazmunli aloqalarni tanlaydiki, uning fikricha, bu rasmlar so`zni eslab qolish uchun yaroqli bo`ladi. (A.R.Luriya, 1967). Shuning uchun ham bu metodika orqali tadqiqot o`tkazish faqatgina assotsiativ, bavosita xotira xususiyatlarigina emas, balki fikrlash faoliyati xarakteri, tushunchali tafakkurning rivojlanish darajasi haqida ham bilish imkonini beradi.

(S.V.Longinova, S.Ya. Rubinshteyn, 1972 B.R.Xersonskiy, 1988)

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov. "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont`ev. "Problem` razvitiya psixika", MDU, nash. 1972 yil.
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. 1975 yil.
6. Psixologiya atlas. M.Gomez tahririda. 1986 yil.
7. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil.
8. E.Goziev. "Intellekt psixologiyasi". 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002 yil.
11. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998 yil.
12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002 yil.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982 yil.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. "Problemi obshaya psixologiya. M., 1973 yil.

O`n yettinchi mashg`ulot

Mavzu. Shaxsning emotsional-irodaviy xislatlari

Reja

1. Hissiyot va emotsiyalar haqida tushuncha.
2. Hissiyot va emotsiyalarning nerv-fiziologik asoslari.
3. Emotsional holatlar va shaxsning emotsional xususiyatlari.
4. Iroda haqida tushuncha.
5. Iroda akti va uning tuzilishi.
6. Shaxsning irodaviy sifatlari va uning tarkib topishi.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: emotsiya va hissiyotning tabiati va mohiyati; hissiyot va emotsiyaning mazmuni, o'zaro aloqadorligi haqida tushuncha beriladi.

Ikkinchi savolda: hissiyot va emotsiyalarning kechishida bosh miya qobig'i, qobiq osti va nerv sistemasining boshqa bog'lanishlarining roli to'g'risida hozirgi zamon fiziologiya fani va I.P.Pavlov ta'limoti tushuntirib beriladi.

Uchinchi savolda: emotsional holatlar; kayfiyat, affekt, qo'rqish, hayajonlanish, frustatsiya, rejalarning buzilib, maqsadning yo'q bo'lib ketishi haqida tushuncha beriladi. Odam bilish faoliyatining emotsional holatlari ta'siri, emotsional holatlarda shaxsning o'z-o'zini boshqarishi tushuntiriladi.

Intellektual, axloqiy, ma'naviy-siyosiy, estetik, vatanparvarlik, o'rtoqlik, do'stlik hissiyotlari haqida, inson faoliyati va hayotida hissiyotning ahamiyati to'g'risida tushuncha berilishi kerak.

To'rtinchi savolda: ixtiyorsiz, ixtiyoriy, irodaviy harakatlar to'g'risida tushuncha berish; shaxsning irodaviy faoliyati, irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlarini tushuntirish ko'zda tutilishi kerak.

Beshinchi savolda: iroda aktining zvenolari; irodaning maqsadi va motivlari; motivlar kurashi; irodaviy zo'r berish; qarorga kelish; qarorni ijro etish haqida tushuncha berish lozim.

Oltinchi savolda: shaxsning irodaviy sifatlari, mustaqilligi, ta'sirchanlik, dadillik, jur'atsizlik, qat'iylik, qaysarlik, o'zini tuta bilish, matonatlilik, esankirash va shunga o'xshash sifatlarni ta'riflash zarur.

O'n sakkizinchi mashg'ulot

Mavzu. Temperament. (2 soat)

Reja

1. Temperament haqida tushuncha.
2. Temperament va oliy nerv faoliyati.
3. Temperament tiplari.
4. Temperament va faoliyat uslubi.

19-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Temperament haqida tushuncha. Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir biridan ta'sirchanligiga va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez o'yg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasining harakatlarida og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi.

Ikkinchi savol: Temperament haqidagi nazariyalar: gumoral (Gippokrat), konstitutsional (Krechmer, Shel'don), nervfiziologik (I.Pavlov) va h.k. Oliy nerv faoliyati tiplari va temperament. Temperament tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi. Psixik faoliyat dinamikasi faqat temperamentga bog'liq emas. Psixik faoliyat dinamikasi kishining motivlariga, psixik holatlariga ham bog'liqdir. U holda temperament va kishining faoliyatiga ta'sir qiluvchi xususiyatlarni qanday farqlash mumkin. Buning uchun quyidagi belgilarni hisobga olish zarur.

1. Temperament xususiyatlari faqat bir turdagi emas, balki har xil va turli maqsadlardagi faoliyat turlarida, mehnatda, o'yinda, sportda, o'quv mashg'ulotlari jarayonida nomoyon bo'ladi.

2. Temperament xususiyatlari odam hayotining butun davomida yoki ma'lum qismida barqaror va o'zgarmasdir.

3. Temperament xususiyatlari bir-biri bilan tasodifiy emas, balki qonuniy bog'langan bo'lib ma'lum tuzilishni tashkil qiladi.

Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablarini I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat tiplari haqidagi ta'limotida ochib berdi: I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat tiplari deganda hayvonlarda va odamda nerv tizimining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi. I.P. Pavlov itlarda tajriba o'tkazdi. U hayvonlarning nerv tizimini: a) qo'zg'alish va tormozlanishning kuchiga; b) bu jarayonlarning muvozanatiga; v) ularning ildamlilik darajasiga qarab bir-biridan farq qilishini aniqladi.

A) Nerv tizimining kuchi hujayralardagi fiziologik moddalarning zahira miqdori bilan belgilanadi. Kuchli tipdagi nerv tizimida bunday zapas ko'p, kuchsizda kamdir. Nerv tizimining kuchi, avvalo kuchli qo'zg'ovchilarga bardosh bera olish qobiliyatida ko'rinadi.

B) Qo'zg'alish va tormozlanish baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda nerv tizimida muvozanat bo'ladi. Bulardan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo'lsa muvozanat bo'lmaydi.

V) Nerv tizimining ildamligi (labilligi) miya pustining biron qismidagi qo'zg'alishning tormozlanish bilan (yoki aksincha) naqadar yengil almashinishidan iborat. Bu eng muhim narsa. Shu belgilarga qarab nerv tizimi 4 tipga ajratildi. Bu ajratish Pavlov fikricha, Gippokratning 4 temperament tipiga to'g'ri keladi.

Uchinchi savol: Temperament va shaxs. Shaxs faoliyatining individual uslublari. Kishilarning temperamenti tiplarini aniqlash va baholashda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi:

1. **Senzitivlik.** Bu kishidagi tashqi qo'zg'atuvchining ta'siriga nisbatan sezgirliги. Senzitivlik kuchli bo'lsa kishiga ozgina kuchga ega bo'lgan qo'zg'atuvchi ham ta'sir qiladi, psixik reaksiyani yuzaga keltiradi.

2. **Reaktivlik.** Kishiga turli ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir qiladi. Aytaylik ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir kuchi bir xil bo'lganda qanday emosional reaksiya nomoyon qilishi baholanadi. Reaktivlik -emosionallik va ta'sirlanuvchanlikdir.

3. **Aktivlik.** Turli faoliyatni bajarishda, to'siqlarni engib o'tishda qanday faollik ko'rsatishi baholanadi.

4. **Reaktivlik va aktivlikning o'zaro munosabati.** Bu ikkala xususiyatdan qaysi biri ustunligi.

5. **Reaksiya tempi.** Turli psixik reaksiyalar va jarayonlarning o'tish tezligi. (nutq tempi, fikr yuritish tezligi, harakatlari tezligi va h.k.)

6. **Xarakterlarning egiluvchanligi** (moslashuvchanligi) va unga qarama-qarshi xususiyat rigidligi (qotib qolganligi).

7. **Ekstrovertlik va introvertlik.** Ekstrovertlik kishinig psixikasining tashqariga yo'nalganligi, tashqi olam bilan faol munosabatda bo'lishi, faoliyatining ayni choqdagi taassurotlarga bog'liqligi. Introvertlik - faoliyatning ichki obrazlarga, o'tmish va kelajak bilan bog'liq fikrlarga bog'liqligi.

To'rtinchi savol: O'quv va mehnat faoliyatida o'quvchilarning temperamenti xususiyatlarini hisobga olish.

Sezilarli psixik aktivlikka ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini bildiruvchi, taassurotlarini hadeb o'zgartirishga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan engil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi **SANGVINIK** deb ataladi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomondan ifoda etilmaydigan kishi **FLEGMATIK** deb ataladi.

Juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emosional "portlash" va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi **XOLERIK** deb ataladi.

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar **MELANXOLIKLAR** deb ataladi.

Nazorat savollari:

1. Temperament haqida tushuncha?
2. Temperament haqidagi gumorol nazariyani tushuntiring.
3. Temperament haqidagi morfologik nazariyani tushuntiring.
4. Temperament tiplari va ularning psixologik mohiyatini tushuntiring.
5. Sangvinik tipidagi kishilarning tavsifi.
6. Xolerik tipidagi kishilarning tavsifi.
7. Flegmatik tipidagi kishilarning tavsifi.
8. Melanxolik tipidagi kishilarning tavsifi.
9. Oliy nerv faoliyati tiplari va temperament.
10. Temperament xususiyatlarini ta'lim-tarbiya jarayonida qanday hisobga olish lozim?

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
2. G'oziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
4. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
5. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
6. Grimak L. P. Rezervi chelovecheskoy psixiki. - M., 1990
7. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
8. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000
9. Klimov E. A. "Osnovi psixologii". Uchebnik. - M., 1997
10. Klimov E. A. Osnovi psixologii. - M., 1998
11. Merlin V. S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznanie. - Perm, 1990
12. Nemov R. S. Psixologiya. - Kn.1. Obshie osnovi psixologii. - M., 1994
13. Nemov R. S. Psixologiya. - V 2-x kn. Kn.1. - M., 1998
14. Nemov R. S. Psixologiya. V 3-x kn. - Kn.1. - M., 1998
15. Olshanskiy B. B. Prakticheskaya psixologiya dlya uchiteley. M. 1994.
16. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi. - M., 1999
17. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi. - Samara, 1998
18. Prikladnaya psixodiagnostika. - M., 1999
19. Rubinshteyn S. L. Osnovi obshey psixologii. - M., 1998
20. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992.

O'n to'qqizinchi mashg'ulot

Mavzu. Xarakter. Qobiliyat. (2 soat)

Reja

1. Xarakter va uning tuzilishi haqida tushuncha.
2. Xarakter, psixologik holat va shaxsning boshqa xususiyatlari.
3. Xarakterning tarkib topishi va rivojlanishi.
4. Qobiliyatlar haqida umumiy tushuncha.
5. Qobiliyatlarning sifat va miqdoriy jihatdan xarakteristikasi.
6. Qobiliyatlar va kasb tanlash masalalari.
7. Qobiliyatlarning tarkib topishi.

8. Qobiliyatlarning turlari.
9. Qobiliyatlarning tabiiy shartlari.

Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savolda: xarakter haqida umumiy tushuncha; xarakterning fiziologik asoslari; xarakterning xislatlari; xarakter xislatlarining tabiati; xarakterning tipik va individual xususiyatlari; yaxlit tushuncha sifatida xarakterning tuzilishi, xarakterning axloqiy va irodaviy sifatleri haqida to'xtalish kerak.

Ikkinchi savolda: shaxsning maqsadi xarakter komponentidir: psixik holat va xarakter; xarakter va temperament; xarakter va iroda; xarakter qobiliyatlarning o'zaro aloqadorlik tomonlari tushuntiriladi.

Uchinchi savolda: kishi xarakterining rivojlanishida ijtimoiy va tabiiy-tarixiy va ontogenetik omillarning roli: xarakter rivojlanishining yosh xususiyatlari; xarakterning shakllanishidagi asosiy shartlar; o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashi haqida tushuncha beriladi.

To'rtinchi savolda: qobiliyat haqida umumiy tushuncha, ta'rif beriladi. Odam qobiliyatining tarixiy va ijtimoiy manbalari; qobiliyat va bilim, malaka, mahoratlarning o'zaro aloqadorligi; shaxsiy qobiliyatning, mayllar va qiziqishlar bilan bog'liqligi; qobiliyatni tadqiq etish vazifalari haqida to'xtalish zarur.

Beshinchi savolda: qobiliyatning yetishmaydigan elementlarini o'rnini to'ldirish imkoniyati, qobiliyatning rivojlanishi; qobiliyat diagnostikasida testlardan foydalanishga tanqidiy yondashish; geniallikning namoyon bo'lishidagi sabablar haqida tushuncha beriladi.

Oldinchi savolda: o'quvchilar qobiliyatini diagnostika qilish; qobiliyatni tarkib toptirishga individual; o'quvchilarni kasbga yo'naltirish; kasbga yo'naltirish; kasbga moslashish, adaptatsiyalash, mustaqil kasb tanlashga o'rganib borish zarurligi haqida fikr yuritiladi.

Yettinchi savolda: qobiliyatlarning tarkib topib borish shart-sharoitlari; o'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli; o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishning asosiy shartlari haqida fikr bildirilishi lozim.

Sakkizinchi savolda: Qobiliyatlarning turlari. Umumiy qobiliyat va uning ko'rinishlari: intellekt, kreativlik (ijodiy qobiliyat), psixomotor qobiliyatlar, sensor qobiliyatlar va h.k. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi. Talant va uning kelib chiqishi.

Umumiy qobiliyatlarga ko'p hollarda intellekt, tafakkurning kreativligi va shaxsning psixomotor qobiliyatlari kiradi deb hisoblaydilar.

INTELLEKT. Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek odamning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishga intilish "intellekt" tushunchasini va nazariyasini yaratilishiga olib keldi. Ko'rsatib o'tganimizdek intellektini o'lchash va baholash uchun turli testlar qo'llaniladi. Ularning barchasi intellekt testlari degan umumiy nom bilan ataladilar. Biz yuqorida intellektini baholashda ko'p qo'llaniladigan testning mohiyatiga qisqa to'xtalib o'tgan edik. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ulardagi formulalar bolalar intellektini o'lchashda qo'llaniladi. Katta yoshli kishilar intellektini baholash uchun boshqa mezon, individual natijani biror meyor (ko'pchilikni o'rganish natijasida tajriba yo'li bilan topilgan) bilan taqqoslanadi. Quyida biz shunday jadvallardan birini keltiramiz.

Intellektni baholash jadvali.

Intellekt koeffitsienti IQ	Aqliy rivojlanish darajasi	% hisobida taqsimlanganlik ko'rsatgichi
130 va yo'qori	Juda yuqori	2,2
120 - 129	Yo'qori	6,7
110 - 119	Yaxshi	16,1

90 - 109	O`rta	50,0
80 - 89	Past	16,1
70 - 79	Chegara ko`rsatgichi	6,7
69 va past	Aqliy zaiflik	2,1


Ko`rinib turibdiki, (jadvalga qarang) yuqori intellektga egalar va aqliy zaiflar 2% ni tashkil qilar ekan. Aqliy rivojlanish darajasini o`lchash ko`proq aqliy zaiflikni, ijtimoiy qarovsizlikni yoki kasbga tanlash maqsadida qo`llaniladi. Hozirgi vaqtda psixologik tadqiqotlar intellektning o`zgarmasligini inkor qiluvchi, uning juda ko`plab omillarga bog`liq (ijtimoiy muhit, oila, irsiyat, motivatsiya) ekanligini ko`rsatmoqda. Shu sababli intellekt koeffitsienti kishining taqdirini belgilovchi birdan-bir ko`rsatgich sifatida qo`llanilishi mumkin emas.

Vollax va N.Kogonlar 11-12 yoshli bolalardagi kreativlikni urganish natijasida to`rt guruh o`quvchilarni ajratdilar.

A. Yo`qori intellektga va yo`qori kreativlikka ega bolalar. Ular o`z qobiliyatlariga ishonadilar, o`z-o`zini baholashlari adekvat. Ularda yo`qori darajadagi o`z-o`zini nazorat qila olish, ichki mustaqillikka egalik mavjud. Ular bolalarga xos psixologiyaga ega, ammo vaziyat talab kilsa o`zlarini kattalardek tuta oladilar. Ular barcha g`ayritabiiy, yangi narsalarga qiziqadilar, juda tashabbuskor, uzlarining mustaqilligini, fikr va harakat erkinligini saqlab qolgan holda ijtimoiy muhitga yaxshi moslasha oladilar.

**B. Yo`qori intellekt va past kreativlikka egalar.** Ular maktabda o`zini ko`rsatishga, yo`qori baholar olishga intiladilar. Ular muvaffaqiyatsizliklarni og`ir boshdan kechiradilar, aytish mumkinki ularda muvaffaqiyatga ishonch emas, muvaffaqiyatsizlikdan qo`rqish ko`p. Ular tavvakal kilmaydilar, o`z fikrlarini ko`pchilik oldida izhor qilmaydilar. Ular indamas, ko`pchilikka (sinfdoshlariga) qushilmaydilar. Ularning yaqin do`stlari juda kam. Ularni o`z holiga tashlab qo`yishsa buni yoqtirishmaydi, ishlarini, o`qishini, hatti-harakatlarini tashqaridan adekvat baholanib turilishiga muhtoj.

**C. Past intellektga va yo`qori kreativlikka egalar.** Bunday o`quvchilar ko`p hollarda "yomonlar" sifatida baholanadilar. Maktab talablariga qiyin moslashadilar, ko`pincha ularning qiziqishlari maktabdan tashqarida bo`lib, u yerda ular o`zlarning ijodiyliklarini nomoyon qiladilar. Ular ko`pincha bezovta, o`zlariga ishonmaydi, o`zlarini kamsitilgandek his qiladilar. Ko`pincha o`qituvchilar ularni diqqatsiz, befahm sifatida baholaydilar, chunki bu bolalar bir xil, zerikarli ishlarni istamay bajaradilar, diqqatini ishga to`play olmaydilar.



D. Past intellekt va past kreativlikka egalar. Tashqi muhitga yaxshi moslashadilar, ko'pincha "o'rtacha" mavqega ega. O'zlari egallab turgan ijtimoiy mavqe ularni qoniqtiradi. O'z-o'zini baholashlari adekvat, o'quv predmetlariga bo'lgan qobiliyatning pastligini ularning yo'qori ijtimoiy intellekti, dilkashligi, o'qishdagi passivligini tuldirdirib turadi.

E. Psixomotor qobiliyatlar - harakatlar va harakatlar tizimini amalga oshirish va boshqarishning psixologik va motor (harakat) asoslari. Ularga quyidagilar kiradi: statistik kuch; dinamik kuch; keskin harakatlardagi kuch; umumiy moslashuvchanlik qobiliyati; epchillik; umumiy chidamlilik; maxsus faoliyatga chidamlilik; muvozanatni tuta olish. Biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo'r qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin.

Talantlilikning yuqori bosqichi geniallik deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san'at va shu kabi sohalarda printsipliy ravishda yangi bo'lgan biror narsani yaratgan kishilar geniylar deb hisoblanadilar. Genial kishilar insoniyat taraqqiyotida yo'l ko'rsatuvchi bosqichlar bo'lib xizmat qiladilar, tarixiy shaxslar bo'lalilar.

Qobiliyatlar, masalan, olim, yozuvchi, konstruktor va hokozolar shug'ullanadigan aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'lgandagina paydo bo'lib qolmaydi. Faoliyat turlari "oliy" va "quyi" xillarga bulinmaydigan va texnika taraqqiyoti oddiy ishchini yoki kishlok xo'jaligi sohasida ishlayotgan mehnatchini ijod bilan shug'ullanishga, ratsionalizator bo'lishga, ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatgichlarga erishishga undayotgan, ayniqsa bizning mamlakatimizda jismoniy ishda ham qobiliyatlar nomoyon bo'laveradi.

Turli intellekt va ijodiy qobiliyatlarga ega o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari (M.Vollax va N.Kogon)		
INTELLEKT		
	Yo'qori	Past
Ijodiy qobiliyatlar	Yo'qori	O'z imkoniyatlariga ishonch yaxshi rivojlangan, o'z-o'zini nazorat kila olish. Yo'qori ijtimoiy moslashuvchanlik Barcha yangiliklarga kuchli qiziqish Diqqatning yo'qori darajada tuplanishi
	Past	Uning hayot (dunyo) haqidagi tasavvurlari va maktab talablari orasidagi doimiy kelishmovchilik bor. O'ziga ishonmaslik va o'zini yetarli hurmat kilmaslik Boshqalar tomonidan baholanishdan qo'rqish Hayotga yaxshi moslashish va undan qoniqish (tashki belgilarga ko'ra) Intellektning kamligi odamlar bilan til topa orlish, biroz passivlik orqali tuldirdiladi.

To'qqizinchi savol: Qobiliyat va irsiyat. Talant va qobiliyatning shakllanishida inson faoliyatining roli. O'quvchilarda umumiy va kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish. Qobiliyatni o'rganish va kasbga yo'naltirish ishlarining vazifalari va xarakteri.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatleri bilan chambarchas bogʻlangan. Kishining talantli ekanligi maʼlum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, koʻpgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bogʻliq boʻladi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyat va uning mohiyatini tushuntiring.
2. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi?
3. Qobiliyatlarning qanday turlari farqlanadi?
4. Isteʼdod va uning shakllanishi?
5. Qobiliyat va isteʼdodlarning tabiiy sharoitlari (asoslari)?
6. Qobiliyatlarning tarkib topishini tushuntiring.
7. Qobiliyatlar va ularning professional faoliyat bilan bogʻliqligi.
8. Qobiliyatlar, layoqat va iqtidor masalalari.
9. Inson qobiliyatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari.

Adabiyotlar:

1. Gʻoziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
2. Gʻoziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
4. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - M., 1996
5. Granovskaya R. M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997
6. Grimak L. P. Rezervi chelovecheskoy psixiki. - M., 1990
7. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
8. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Maʼruzalar matni - T., 2000
9. Klimov E. A. "Osnovi psixologii". Uchebnik. - M., 1997
10. Klimov E. A. Osnovi psixologii. - M., 1998
11. Merlin V. S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznanie. - Perm, 1990
12. Nemov R. S. Psixologiya. - Kn.1. Obshie osnovi psixologii. - M., 1994
13. Nemov R. S. Psixologiya. - V 2-x kn. Kn.1. - M., 1998
14. Nemov R. S. Psixologiya. V 3-x kn. - Kn.1. - M., 1998
15. Olshanskiy B. B. Prakticheskaya psixologiya dlya uchiteley. M. 1994.
16. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi. - M., 1999
17. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi. - Samara, 1998
18. Prikladnaya psixodiagnostika. - M., 1999
19. Rubinshteyn S. L. Osnovi obshey psixologii. - M., 1998
20. Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy taʼhiri ostida. T.1992
21. Luk A.N. Teoreticheskie osnovi viyavleniya tvorcheskix sposobnostey.
22. Odarennie deti. /Pod red. M. Karne. M.: Progress, 1991.
23. Tunik E.E. Psixodiagnostika tvorcheskogo mishleniya. Kreativnie testi. SPb.: SPbUPM, 1997.
24. Tunik E.E. Oprosnik kreativnosti Djonsona. SPb.: SPbUPM, 1997.
25. Tunik E.E. Test Torrensa. Diagnostika kreativnosti. SPb.: Imaton, 1998.
26. Drujinin V.N. Psixodiagnostika obshix sposobnostey. - M: Akademiya, 1996. - 224 s.